


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLYI TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**“NANOFIZIKA ASOSLARI”
moduli bo'yicha**

O' Q U V - U S L U B I Y M A J M U A

Toshkent – 2022

Modulning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7-dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va dasturlar asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

O‘zMU professori,
f.-m.f.d., prof. **G. Abduraxmanov**

Taqrizchilar:

TDTU professori,
f.-m.f.d., prof. B. Umirzakov,
O‘zMU professori,
f.-m. f. doktori SH. Yuldashev

**O‘quv - uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2020 yil “30” dekabrda 5/4-sonli bayonnoma)**

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	3
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	7
III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	8
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	90
V. GLOSSARIY	91
VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	100

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boyicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish boyicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovasion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi boyicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qoyiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari boyicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash boyicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qoyiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi tinglovchilarini zamonaviy nanotexnologiyalar asosidagi fizikaviy jarayonlar, nanomateriallar sintezi, ularning xossalarini o'rganish usullari va qo'llanish imkoniyatlari haqida oliy ta'lim

muassasalari pedagog kadrlarining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini oshirish.

Modulning vazifalari:

- Nanofizika sohasidagi so'nggi yangiliklar, zamonaviy eksperimental va kuzatuv texnologiyalari va xorijiy adabiyotlar haqidagi bilimlarini takomillashtirish, bu boradagi muammolarni aniqlash, tahlil etish va baholash, nanomateriallarni xalq xo'jaligida qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatish;

- Zamonaviy nanofizika va nanomateriallar sohasida ilg'or tajribalarni o'rganish va amaliyotda qo'llash usullari haqida nazariy va amaliy bilimlarni, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Modul boyicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qoyiladigan talablar

Modulni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- Nanofizika va nanotexnologiyalar sohasidagi zamonaviy revolyusion yangiliklar va zamonaviy adabiyotlar, so'nggi yillarda nanofizika va nanotexnologiyalarda aniqlangan fundamental qonuniyatlar, kashfiyotlar va tamoyillar, xozirgi zamon eksperimental tadqiqot usullaridan samarali foydalanish to'g'risidagi ***bilimlarga ega bo'lishi*** kerak;

- Nanomateriallar va nanotexnologiyalardan xalq xo'jaligida foydalanish imkoniyatlarini tushinishlari va bu haqda bilimlarni tahlil etish, boshqa tinglovchilarga, jumladan, talabalar va o'quvchilarga yetkaza bilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi*** lozim;

- Nanomasshtabda sodir bo'ladigan fundamental fizikaviy jarayonlarni va shu jarayonlarga asoslangan qurilmalarning ishini tahlil etish ***malakalariga ega bo'lishi*** lozim;

- Kvant mexanikasi va statistik fizika qonunlarini, qattiq jismlar fizikasi asoslarini tushunish va qo'llash ***kompetensiyalariga ega bo'lishi*** lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish boyicha tavsiyalar

Modulni o'qitish ma'ruza, amaliy va ko'chma mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

- ko'chma mashg'ulotlarda zamonaviy ilmiy tajriba qurilmalari va kuzatuv asboblari bilan bevosita tanishish nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Koinot strukturasi va evolyusiyasi, materiyaning yangi formalari” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish”, “Ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish”, “Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish”, “Nanofizika asoslari” va “Kvant aloqa. Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning ta'lim jarayonida nanofizika, nanomateriallar, nanozarralarni xosil qilish va ularni kuzatish vositalari boyicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilarning ta'lim jarayonini tashkil etishda texnologik yondashuv asoslarini va bu boradagi ilg'or tajribani o'rganadilar, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Moduli bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya		
		Jami	jumladan	
			Nazariy	Amaliy
1.	Nanotexnologiya va nanofizikaning tarixi, vazifalari hamda zamonaviy fanlar va texnologiyalardagi o'rni. O'zbekistonda nanotexnologiyalar va nanomateriallarni qo'llash istiqbollari	2	2	
2.	Qattiq jism fizikasi elementlari. Zonalar nazariyasi, metall, dielektrik va yarimo'tkazgichlar haqida tushincha.	2	2	
3.	Nanomateriallar. Fulleren, uglerod nanonaylari va grafen. Ularning fizik xususiyatlari va amaliyotda qo'llanishi	2	2	2
4.	Nanostrukturalarda fundamental elektron hodisalar I. Kvant o'lcham effektlari. Kvant chegaralanishi. Energetik holatlar zichligi. Nanozarralar va ularning fizik xususiyatlari	2	2	2
5.	Nanostrukturalarda fundamental elektron hodisalar II. Ikki o'lchovli "elektron gaz". Energetik holatlar zichligi. Energetik holatlar zichligi. Ballistik transport. Metall, dielektrik (oksid), yarimo'tgazgich (MDYa yoki MOP) tranzistorlar. Geterostrukturalar	4	2	2
6.	Xollning kvant effektlari. Butun sonli Xoll effekti. Kasr sonli Xoll effekti	2	2	2
7.	Kvant tunnellanish effekti. Rezonans tunnellanish. Bir elektronli tranzistor. Sirt plazmon rezonansi (SPR). Nanofotonika elementlari	2	2	4
Jami: 26 soat		26	14	12

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Nanofizika va nanotexnologiyalarga kirish (2 soat).

- 1.1. Nanotexnologiyaning tarixi.
- 1.2. Nanofizika va nanotexnologiyalarning vazifalari hamda zamonaviy fanlar va texnologiyalardagi o'rni.
- 1.3. O'zbekistonda nanotexnologiyalar va nanomateriallarni qo'llash istiqbollari.

2-mavzu: Qattiq jism fizikasi elementlari (2 soat).

- 2.1. Qattiq jismlarning turlari, tuzilishi. Kristall panjara. Blox teoremasi.

- 2.2. Metallar o'tkazuvchanligining Drude va Zommerfeld nazariyalari.
2.3. Zonalar nazariyasi, metall, dielektrik va yarimo'tkazgichlar haqida tushincha.

3-mavzu: Nanomateriallar (2 soat).

- 3.1. Materiallar xossalari nanomasshtabda o'zgarishi va uning sabablari.
3.2. Metall nanozarrachalar va ularning xossalari.
3.3. Fulleren, uglerod nanonaylari va grafen. Ularning fizik xususiyatlari va amaliyotda qo'llanishi.
3.4. Ikki o'lchamli nanotizimlar.

4-mavzu: Nanostrukturalarda fundamental elektron hodisalar I. (2 soat).

- 4.1. Kvant o'lcham effektlari. Kvant chegaralanishi.
4.2. Energetik holatlar zichligi.
4.3. Nanotizimlarda fononlar.

5-mavzu: Nanostrukturalarda fundamental elektron hodisalar II. (4 soat).

- 5.1. Ikki o'lchamli "elektron gaz". Energetik holatlar zichligi.
5.2. Ballistik transport.
5.3. Metall-dielektrik (oksid)-yarimo'tgazgich (MDYa yoki MOP) tranzistorlar. 5.4. Geterostrukturalar.

6-mavzu: Xollning kvant effektlari (2 soat).

- 6.1. Butun sonli Xoll effekti.
6.2. Kasr sonli Xoll effekti.
6.3. Kvazizarrachalar.

7-mavzu: Kvant tunnellanish effekti (2 soat).

- 7.1. Rezonans tunnellanish. Rezonans tunnel diodi.
7.2. Bir elektronli tranzistor. Nanoelektronika elementlari.
7.3 Sirt plazmon rezonansi (SPR). Nanofotonika elementlari

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot. Energodispersion va rentgenofluoressent spektrometrlar yordamida nanostrukturaning elementar tarkibini aniqlash (2 soat).

- Energodispersion spektrometrning tuzilishi va ishlashi.
Rentgenofluoressent spektrometrning tuzilishi va ishlashi.

2-amaliy mashg'ulot. Transmission va skanlovchi elektron mikroskoplarining tuzilishi va ishlash prinsipi, namuna tayyorlash usullari (2 soat).

3-amaliy mashg'ulot. Skanlovchi tunnel mikroskopi va atom kuch mikroskopining

tuzilishi va ishlash prinsipi (2 soat).

4-amaliy mashg'ulot. Optik va o'ta yuqori chastotali yaqin maydon skanlovchi mikroskopi orqali nanoobektlarni kuzatish. Nanostrukturalarning, jumladan foton kristallarning optik xususiyatlarini o'rganish usullari (2 soat).

5-amaliy mashg'ulot. Rentgen diffraktometrini tuzilishi va ishlash prinsipi va uning yordamida namunaning kristall tuzilishini aniqlash (2 soat).

6-amaliy mashg'ulot. Nanolitografiya usullari. Nanotexnologiyalardan foydalanib yangi tipdagi quyosh elementlarini yig'ish va ularning xususiyatlarini laboratoriya sharoitida aniqlash usullari (2 soat).

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovasion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

1-ma`ruza. “Nanofizika asoslari” faniga kirish

REJA

- 1.1. *Nanotexnologiyalar haqida*
- 1.2. *Nanofizika fani nimalarni o`rganadi?*
- 1.3. *Nanofizika bizga nima beradi?*
- 1.4. *O`zbekistonda nanofizika vananotexnologiyalar istiqboli*
- 1.5. *Nanotexnologiyalar hamisha foydalimi?*

Tayanch iboralar: nanomasshtab, nanorobot, nanozarracha, past o`lchamli tizimlar, o`z-o`zidan yig`ilish, nanokimyoy, nanotibbiyot, nanobiologiya, agrotexnika

1.1. Nanotexnologiyalar haqida

Nanotexnologiyalar nanoo`lchamli (o`lchamlari metrning milliarddan bir ulushlariga teng) materiallar (0 o`lchamli - 0D, 1 o`lchamli - 1D, 2 o`lchamli – 2D) va ularning majmuasini (nanotizimlarni) hamda ulardan turli qurilmalar tayyorlash usullarini va vositalarini o`zichiga oladi. Nanotexnologiyalarga qiziqish sababi – bu usullar bilan yaratilgan materiallarning xossalari hajmiy materiallarnikidan keskin farq qilishi, ba`zan mutlaq yangi xossalar kelib chiqishi. Masalan, hammaga yaxshi tanish bo`lgan oltin hajmiy holda inert bo`lib, deyarli hech narsa bilan kimyoviy reaksiyaga kirishmaydi va boshqa moddalarning o`zaro reaksiyasiga ta`sirk o`rsatmaydi. Ammo diametri 7 nm dan kichikroq oltin nanozarralari juda yaxshi katalizatorga aylanadi. Yana bir misol – odatdagi sharoitda ko`mirni o`t oldirish ancha qiyin, lekin 10-100 nm li zarralardan iborat ko`mir kukuni nafaqat tez yonadi, hatto portlaydi ham. Uchinchi misol – odatdagi rangi hammaga tanish bo`lgan kumush nanozarrachalar holida silikat shishaning ichida chiroyli alvon rang beradi. Bunday misollarni ko`plab keltirish mumkin.

Insoniyat tarixida tabiatga keskin o`zgarish kiritgan ikkita inqilob bo`lgan – tosh davrida odamzot yer haydab dehqonchilik qilishga o`tdi va 18-asrning oxirida boshlangan sanoat inqilobi (mashinalardan foydalanish). Hozirgi nanotexnologiyalar hayotimizga olib kelishi mumkin bo`lgan o`zgarishlarni ko`pgina olimlar va futurologlar uchinchi inqilob bo`ladi, - deb bashorat qilmoqdalar.

Aslini olganda nanotexnologiyalardan odamlar, turli jonzotlar va o'simliklar dunyo yaratilganidan beri foydalanib kelmoqda, - desak mubolag'a bo'lmaydi. Faqat o'tgan asrning 80-yillarigacha hechkim bu iborani ishlatmas va nanotexnologiyalarni ayrim yo'nalish sifatida ajratmas edi.

Nanotexnologiyalarga daxldor bo'lgan ilmiy yo'nalishlar nanofizika, nanokimyó, nanobiologiya, nanomedicina va hokazolarga bo'linadi. Bu yo'nalishlarning har birining o'ziga xos tadqiqot usullari va qo'llanish sohalari, insoniyat foydalanadigan natijalari (hozirgi va kelajakdagi) bor. Ba'zan bu yo'nalishlar bir-biriga tutashib ketadi. Masalan, nanofizika nanoo'lchamli materiallarning fizikaviy (mexanik, elektr, magnit, optik va hokazo) xossalarini o'rgansa-da, bunday materiallar ko'pincha kimyoviy (keyingi vaqtlarda biologik ham) usullar bilan olinadi va tashqi zararli ta'sirlardan kimyoviy usullar bilan himoya qilinadi. Lozim bo'lganda bu nanomateriallarning xossalarini kerakli yo'nalishda o'zgartirish uchun fizikaviy, kimyoviy yoki biologik ta'sirlar qo'llaniladi.

Yuqorida aytib o'tganimiz ko'mirning va oltinning kimyoviy xossalari o'zgarishiga mexanik ta'sir (maydalash) sabab bo'ldi, kumushning rangi (fizikaviy, optik xossasi) o'zgarishiga esa ham fizikaviy, ham kimyoviy ta'sirlar sababchi bo'ldi.

1.2. Nanofizika fani nimalarni o'rganadi?

Yuqorida biz nanofizika nanoo'lchamli materiallarning fizikaviy (mexanik, elektr, magnit, optik va hokazo) xossalarini o'rganadi, - dedik. Endi bu haqda batafsilroq to'xtalamiz.

Quyida nanofizikaga oid bir qator tadqiqot va amaliyot yo'nalishlari keltirilgan:

1. O'ta mustahkam va o'ta yengil materiallar tayyorlash (materialshunoslik) va xossalarini o'rganish, nazorat qilish usullari;
2. Lengmyur-Blojet qatlamlari (sun'iy burun) – tayyorlash va xossalarini o'rganish, nazorat qilish usullari;
3. Tibbiyotda dorilarni kasallik o'chog'iga tez, o'zgartirmasdan yetkazish va lozim bo'lganda molekulalar darajasida jarrohlik hamda bu jarayonlarni nazorat qilish usullari (medicina, biologiya);
4. Harbiy sanoat obyektlarida va favqulodda holatlarda degazasiya va dezinfeksiya qilishga ishlatiladigan nanozarrachalar (aerozol) tayyorlash, xossalarini nazorat qilish va ishlatish usullari;
5. Zamonaviy axborot-aloqa vositalari, kompyuterlar uchun yangi fizikaviy asoslar, texnik vositalar yaratish, masalan, o'ta tez ishlaydigan kompyuterlar uchun o'ta katta sig'imli magnit saqlagichlar – triggerlar;

6. O'ta ixcham va tejamkor, tez ishlaydigan axborot-aloqa va hisoblash, texnologik jarayonlarni nazorat qilish vositalarining fizikaviy asoslari va texnik vositalarini yaratish (atom-molekulyar dizayn, integral sxemalar, datchiklar);

7. Fullerenlar va nanonaychalar (fizika) ning fizikaviy va kimyoviy xossalari, ularni tayyorlash va qo'llash usullari;

8. Nanokatalizatorlar (nanosorbentlar, solishtirma yuzasi $600 \text{ m}^2/\text{g}$ bo'lgan filtrlar (kimyo) tayyorlash va xossalarini o'rganish usullari;

9. Kvant nuqtalar asosida lazerlar va svetodiodlar (nanoelektronika) – samaradorligi yuqori yoki to'lqin uzunligi keng oraliqda bo'lgan yorug'lik manba'larining fizikaviy asoslari va tayyorlash texnologiyasi, nazorat usullari;

10. Foton kristallar (fotonika) – o'lchamlari yorug'lik to'lqini uzunligidan ko'p marta kichik 1, 2 va 3 o'lchamli davriy tizilmalar – ixcham va tez ishlaydigan optik kompyuterlar, aloqa vositalari (informasiya uzatish va qabul qilishning optik usullari) ning fizikaviy asoslari va ularni tayyorlash usullari;

11. Uranni qadoqlash vositalari (nanonaychalar - energetika) – atom elektr stansiyalarining issiqlik chiqaruvchi elementlarini tayyorlash va ishlatilganlarini xavfsiz saqlash mumkin bo'lgan shaklga keltirish vositalari va usullari;

12. Nanomexanika – nanoo'lchamli robotlar yoki manipulyatorlarning ishlashining fizikaviy asoslari, ularni tayyorlash va ishlatish usullari;

13. Nanomateriallar va nanotizimlarda massa, energiya va zaryad tashish jarayonlari (diffuziya, issiqlik o'tkazuvchanlik, elektr o'tkazuvchanlik, energiyani bir turdan boshqa turga aylantirish, masalan, fotoEYuK hamda termoEYuK hosil bo'lish jarayonlari);

14. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlashda nanomasshtabdagi fizikaviy va kimyoviy jarayonlar, ularni o'rganish usullari va vositalari.

1.3. Nanofizika bizga nima beradi?

1. O'ta mustahkam va o'tay engil, odatdagi usullar bilan yetishish mumkin bo'lmagan xossalarga ega materiallar tayyorlash (materialshunoslik). Bunda ko'pgina fizikaviy va kimyoviy jarayonlar chambarchas bog'langan. Hozir bir o'lchamli (uglerod nanonaylari) va ikki o'lchamli (grafen) nanomateriallar mavjud, ularning pishiqligi eng yaxshi po'latnikidan 4-10 baravar yuqori, zichligi esa 2-3 marta kam;

2. Lengmyur-Blojet qatlamlari (sun'iy burun, qalinligi 1 molekula) – kimyoviy va biologik (turli moddalarning, shu jumladan odamlar va hayvonlar uchun xavfli

moddalarning judakam miqdorini – hatto ayrim molekulalargacha–aniqlash imkonini beradi);

3. Qon aylanish tizimiga tez yetkaziladigan nanotuzilishli dorilar (medisina, biologiya) – dori molekulalarini tashuvchi nanozarrachalarga biriktirish, o'zgartirmasdan lozim joyga yetkazish va joyiga borganda ajratib olish vositalari hamda usullari;

4. Harbiy sanoat obyektlarida va favqulodda holatlarda degazasiya va dezinfeksiya qilishga nanozarrachalar (aerozol), qo'shimcha 2-bandni qarang;

5. O'ta tez ishlaydigan kompyuterlar uchun o'ta katta sig'imli magnit saqlagichlar – triggerlar. Ishlashi – fizikaviy, tayyorlanishi – fizikaviy va kimyoviy, ishlash tezligi 10^{12} s gacha;

6. Atom-molekulyar dizayn (integral sxemalar, datchiklar) va tayyor mahsulot xossalari aniqlash, lozim yo'nalishda o'zgartirish usullari;

7. Xossalari shu paytgacha ishlatib kelingan materiallardan tubdan farq qiluvchi fullerenlar va nanonaychalar (fizika), grafen – ishlashi fizikaviy, tayyorlanishi–fizikaviy va kimyoviy jarayonlar;

8. Turli moddalarni o'rganishda va ishlab chiqarishda kerakli, tanlangan reaksiyalarni amalga oshirishni ko'p marta tezlashtiradigan (yoki umuman bunga imkon yaratadigan) nanokatalizatorlar (nanosorbentlar, solishtirma yuzasi $600 \text{ m}^2/\text{g}$ bo'lgan filtrlar - kimyo);

9. Kvant nuqtalar asosida lazerlar va svetodiodlar (nanoelektronika) – samaradorligi yuqori yoki to'liq uzunligi keng oraliqda yorug'lik manba'lari, faqat nanotexnologiya usullari bilan tayyorlash mumkin;

10. Fotonkristallar (fotonika) – o'lchamlar iyorug'lik to'liqini uzunligidan ko'p marta kichik 1, 2 va 3 o'lchamli davriy tizilmalar – ixcham va tez ishlaydigan kompyuterlar, aloqa vositalari (informasiya uzatish va qabul qilishning optik usullari);

11. Uranni qadoqlash (nanonaychalar - energetika) – atom elektr stansiyalarining issiqlik chiqaruvchi elementlarini tayyorlash va ishlatilganlarini xavfsiz saqlash mumkin bo'lgan shaklga keltirish vositalari va usullari;

12. Nanomexanika – nanoo'lchamli robotlar yoki manipulyatorlar yaratish, ulardan foydalanish usullari, shu jumladan nanojarrohlik qurilmalari;

13. Sanoat va ro'zg'or uchun samarali, arzon energiya (asosan elektr energiyasi) manbalari va ularga nanotizimli materiallar;

14. Qishloqxo'jaligimahsulotlariniyetishtirish, saqlashvaqaytaishlashningyangi,

samaraliusullarivavositalari.

1.4. O'zbekistonda nanofizika va nanotexnologiyalar istiqboli

O'zbekistonda nanofizika va nanotexnologiyalardan foydalanishning hozirgi kundagi asosiy yo'nalishlari:

1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash, jumladan, a) agrotexnikada deyarli barcha o'simliklarning hosildorligini, noqulay ob-havo sharoitiga chidamliligini oshiradigan nanoo'g'itlar, yig'ilgan hosilni saqlashga tayyorlash va qayta ishlashga turlinanozarrachali vositalar; b) chorvachilik davaparrandachilik damikroiqlim yaratish, mahsuldorlikni oshirish va kasalliklarning oldini olish uchun ozuqamoddalariga qo'shimchalar; v) sun'iy oziq-ovqat mahsulotlari;

2. Nanokataliz – kimyo va neft kimyo sanoatida;

3. Nanozarrachali va nanotizimli energiyani o'zgartiruvchi (foto- va termoelektrik, fotokatalitik) va energiya tashilishini yaxshilovchi (nanosuyuqliklar) materiallar;

4. Salbiy ekologik ta'sirlarni pasaytirish vositalari (masalan, oqava suvlarni tozalash, qurigan Orol tubidagi tuzlarning, atrofidagi qumlarning ko'chishiga to'sqinlik qiladigan, undagi o'simliklarni suv bilan ta'minlashni yaxshilaydigan gidrogel materiallar).

1.5. Nanotexnologiyalar hamisha foydalimi?

Insoniyat yaratgan barcha yangiliklar kabi, nanotexnologiyalarning ham ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Ijobiy tomonlarini yuqorida sanab o'tdik. Endi uning salbiy jihatlariga nazar tashlaymiz. Ular odatda yangilikning turli jihatlarini yetarlicha o'rganmaslik oqibati bo'ladi.

“O'pkaga tushgan nanozarrachalar hечqanday to'sqinliksiz o'pkaning pardasi orqali jismimizga singadi va qaytib chiqmaydi. Kunlar va oylar davomida kremniy dioksidi o'pkamizda to'planib, miqdori ortib boraveradi, nafas olishimizni va yashashimizni kundan kunga qiyinlashtiraveradi. Flyuorografiyada bu narsa o'pka sili kabi namoyon bo'ladi” (Dmitriy Jerebsov, kimyo fanlari kandidati, “Nanotexnologiyalar” ilmiy-ma'rifiy markazi muhandis-tadqiqotchisi).

Qattiq nanozarrachalar tabiatda deyarli ma'lum emas, jismimizdagi hujayralarning ko'pchiligi nanoobyektlardan ancha katta, va ularning (hujayralarning) hosil bo'lishi ancha qiyin. Kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavf shundan iboratki, bu nanozarrachalar jismimizga singib, bizning tabiiy hujayralarimiz bilan o'zaro ta'sir qilishi mumkin, buning oqibati esa noma'lum. Shuning uchun tadqiqotchilar nanotexnologiyalarni tibbiyotda juda ehtiyotkorlik bilan qo'llash zarurligini aytishmoqda, chunki *evolyusiya odatdagi yashash muhitida*

deyarli uchramaydigan xossalarga ega moddalarga qarshi himoya mexanizmlarini yaratmagan.

2-ma`ruza. Qattiq jismlar fizikasi elementlari

REJA

- 3.1. *O'lchashlarning fizikadagi o'rni. Qattiq jismlarning o'lchanadigan xossalari va o'lchash usullari*
- 3.2. *Metallarda elektr o'tkazuvchanlik – Drude va Zommerfeld nazariyalari*
- 3.3. *Videman-Frans qonuni va metallarda zaryad hamda issiqlik tashish*
- 3.4. *Metallarda elektr o'tkazuvchanlik – kvant nazariyasi*
- 3.5. *Metallarning kristall panjarasi. Blox funksiyasi. Kronig-Penni modeli*

Tayanch iboralar: elektr o'tkazuvchanlik, issiqlik o'tkazuvchanlik, erkin elektronlar, kristall panjara, Blox funksiyasi, energetik zonalar, Fermi energiyasi.

2.1. O'lchashlarning fizikadagi o'rni

Fizika mohiyati bo'yicha jismlarning yoki hodisalarning biror xossasini o'lchashga va natijalarni taqqoslashga asoslangan. Ko'rinib turibdi-ki, o'lchash asboblari va usullari, o'lchanadigan xossalarni to'g'ri tanlash bunda muhim ahamiyat kasb etadi. Nanotexnologiyalarda va ularning asosi bo'lgan nanofizikada biz asosan qattiq jismlar bilan ishlaymiz. Shunga ko'ra qattiq jismlarning o'lchanadigan asosiy fizikaviy xossalarini va ularni o'lchash usullarini eslatib o'tamiz:

- Geometrik xossalari – uzunligi, qalinligi, eni
- Massasi (zichligi, solishtirma og'irligi)
- Mexanik xossalari (Yung moduli, mustahkamlik chegarasi)
- Issiqlik xossalari (issiqlikdan kengayish koeffitsiyenti, solishtirma issiqlik sig'imi, erish temperaturasi, tuzilishining o'zgarishi – faza o'tishlari)
- Elektr xossalari (solishtirma qarshiligi va uning temperatura bo'ylab o'zgarishi, dielektrik doimiysi, Kyuri temperaturasi)
- Magnit xossalari (magnit singdiruvchanligi, qoldiq magnitlanish, koersitiv kuchi, to'yinish magnitlanganligi, Kyuri temperaturasi)
- Termoelektrik va termomagnitik xossalari (termoeyuk - Zeyebek, Peltze va Tomson koeffitsiyentlari, Nernst-Ettingsgauzen koeffitsiyenti)
- Optik xossalari (sindirish va yutish koeffitsiyentlari, ularning temperaturaga va to'liq uzunligiga bog'liqligi, qutblanish)
- Tuzilishi – atomlar qanday joylashgan (rentgen nurlari difraksiyasi)

Nanofizikada o'rganiladigan obyektlarning o'lchami juda kichikligi sabab ularning ko'pgina xossalarini o'rganish uchun odatdagi, bevosita o'lchash usullari to'g'ri kelmaydi, va boshqa, nanomasshtabga xos bo'lgan, yangi fizikaviy jarayonlarga, qonuniyatlarga asoslangan o'lchash usullar hamda vositalari yaratilishi lozim. Masalan, nanozarrachalarning o'lchamini aniqlash uchun lazer nurining sochilishi qonuniyatlari

(Mi nazariyasi), nanoqatlamlarning tarkibi va qalinligini aniqlash uchun rentgen fluoressent spektrometridan, optik ellipsometrdan, elektr o'tkazuvchanligi va dielektrik singdiruvchanligini aniqlashda infraqizil yoki optik spektrlardan foydalaniladi, va hokazo.

2.2. Metallarda elektr o'tkazuvchanlik –Drude va Zommerfeld nazariyalari

Metallarning elektr o'tkazuvchanligining birinchi nazariyasini Drude yaratgan edi. Bu nazariyaga ko'ra metallarda elektr tokini erkin elektronlar hosil qiladi. Metall atomlari kristallga birlashganda valent elektronlari umumiy lashib, material bo'ylab erkin harakat qilish imkoniga ega bo'ladi, va bu elektronlar "elektron gazi" deb ataladi.

Erkin elektronlar issiqlik ta'sirida betartib, xaotik harakatda bo'ladi, bu xaotik harakatning tezligi v harorat T ga mos:

$$\frac{m\langle v_T^2 \rangle}{2} = \frac{3}{2}kT. \quad (2.1)$$

Metallga tashqi elektr maydoni E ta'sir qilganda, erkin elektronlar maydonga qarshi yo'nalishda harakatga keladi va ular tashiydigan zaryad $dq = neS\langle v \rangle dt$, o'tayotgan tok esa $I = neS\langle v \rangle$ bo'ladi, mos ravishda tok zichligi $j = ne\langle v \rangle$. Odatdagi temperaturada (300 K) $v_T \approx 10^5$ m/c, $v \approx 10^{-3}$ m/c.

Drude nazariyasida erkin elektronlar tashqi elektr maydoni ta'sirida a tezlanish oladi: $a = eE/m$ va keyingi to'qnashuv gacha ular $v = at$ tezlikka erishadi. $\tau = \langle l \rangle / v_T$ bo'lgani uchun $j = ne^2\tau E/m$, ya'ni $j = ne^2\langle l \rangle E / (mv_T)$. Demak, $\sigma = ne^2\langle l \rangle / (mv_T)$, $\mu = e\langle l \rangle / (mv_T)$.

Bu nazariya tajribaga zid, chunki $v_T \sim \sqrt{T}$, $\sigma \sim 1/\sqrt{T}$, tajribada esa $\sigma \sim 1/T$.

Bundan tashqari, elektron gazning issiqlik sig'imi tajribadagidan 100 marta katta.

Drude nazariyasining tajribaga zidligi sababi – erkin elektronlarning energiya (impuls) bo'ylab taqsimlanishi Maksvell-Bolsman statistikasiga bo'ysinadi, - degan taxmin edi:

$$f(p) = \frac{1}{(2\pi mk_B T)^{3/2}} \exp\left(-\frac{p^2}{2mk_B T}\right). \quad (2.2)$$

Bunda p – elektronning impuls, m - massasi, k_B - Bolsman doimiysi.

Zommerfeld nazariyasi Fermi-Dirak statistikasiga asoslangan bo'lib, tajribaga mos keladi:

$$f(E) = \frac{g_i}{\exp\left(\frac{E_i - E_F}{k_B T}\right) + 1}. \quad (2.3)$$

Bunda g_i – energetik sathning vazn funksiyasi (aynish karraligi), E_i – i - sathning energiyasi, E_F – Fermi energiyasi.

Fermi energiyasi E_F – absolyut nol temperaturada metallda elektronlar egallashi mumkin bo‘lgan eng yuqori energiya sathi.

Drude nazariyasining kamchiliklarini hisobga olib yaratilgan Zommerfeld nazariyasida elektron gazning issiqlik sig‘imi

$$c_V = \frac{\pi^2 k T}{2 E_F} n k \quad (2.4)$$

tajribaga mos keladi.

Natijada magnit maydonida qarshilik o‘zgarishi, elektr o‘tkazuvchanlik, termoelektrik va termomagnitik hodisalarni, Videman-Frans qonuni $\kappa/\sigma = L_0 T$ ni tushuntirildi. Bunda κ – metallning issiqlik o‘tkazuvchanligi, $L_0 = 3(k_B/e)^2 \approx 2,22 \cdot 10^{-8} \text{ V}^2/\text{K}^2$ – Lorens doimiysi, $k_B = 1,38 \cdot 10^{-23} \text{ J/K}$ – Bolsman doimiysi.

Ammo Zommerfeld nazariyasi nimaga ko‘pgina metallarda Xoll koeffitsiyentining ishorasi musbatligini tushuntira olmadi.

2.3. Videman-Frans qonuni va metallarda zaryad hamda issiqlik tashish

Tajriba natijasi bo‘lgan Videman-Frans qonuni $\kappa/\sigma = L_0 T$ metallarning elektr o‘tkazuvchanligi σ ularning issiqlik o‘tkazuvchanligi κ bilan chambarchas bog‘langanligini ko‘rsatadi. Elektr o‘tkazuvchanligi erkin elektronlar (“elektron gaz”) ning tashqi elektr maydonida bir yo‘nalishda harakati bilan bog‘liq ekanligi Drude nazariyasida asoslangan edi. Demak, Videman-Frans qonuniga muvofiq metallarda issiqlik o‘tkazuvchanligi ham elektronlarning harakati bilan bog‘liq, ya’ni issiqlik o‘tkazish jarayonida elektronlarning energiya tashishi asosiy omil bo‘ladi.

Videman-Frans qonuni elektronlarning relaksatsiya vaqti yondoshuviga (elastik to‘qnashuvlar) asoslangan bo‘lib, elastik bo‘lmagan to‘qnashuvlar metallarning elektr o‘tkazuvchanligiga ta’sir ko‘rsatmasdan, issiqlik

. Bu nazariyaning asosiy cheklanishi – kristall panjaraning kuch maydonida (potensialda) faqat birgina elektronning harakati o‘rganiladi, chunki ko‘pzarrachali tizimlarning xossalari muammosini hatto klassik fizika chegarasida ham hal qilish imkoni yo‘q.

2.4. Metallarning kristall panjarasi. Blox funksiyasi. Kronig-Penni modeli

Kristall panjarada atomlar fazoda qat'iy tartibda joylashgan bo'lib, bu tartibning takrorlanish davri uch yo'nalishda a , b va c (o'tkazuvchanligini kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari, Videman-Frans qonuniga bo'ysinmaydigan materiallar ham topildi – vanadiy dioksidi odatdagi sharoitda shaffof dielektrik bo'lib, harorat 67°S dan oshganda metall holatga o'tadi (elektr tokini yaxshi o'tkazadi), lekin issiqlik o'tkazuvchanligi bo'yicha dielektriklarga yaqin.

2.5. Metallarda elektr o'tkazuvchanlik – kvant nazariyasi


Drude va Zommerfeld nazariyalarining kamchiliklari metallarda elektr o'tkazuvchanligining keyinchalik yaratilgan kvant nazariyasida tuzatildi. Bu nazariyada kristall panjara mavjudligi va elektronlar metall ichida davriy potensial ta'sirida harakatlanishi hamda panjara nuqsonlarida sochilishi hisobga olinib, energetik zonalar, Fermi energiyasi va Fermi sathlari tushunchalari kiritildi. Natijada metallarning deyarli barcha asosiy xossalarini, shu jumladan, musbat zaryad tashuvchilar paydo bo'lishini (Xoll koeffitsiyentining ishorasi musbatligini) tushuntirish imkoni yaratildi.

Metallar elektr o'tkazuvchanligining kvant nazariyasida kristall panjarada atomlar joylashuvining davriyligi, simmetriyasi va ulardan kelib chiqadigan elementar yacheyka tushunchalari muhim. Oqibatda namunadagi barcha atomlar (taxminan 10^{23} sm^{-3}) ga tegishli harakat tenglamalarini yoki Shredinger tenglamalarini yechish (hal qilib bo'lmaydigan muammo!) o'rniga birnecha atomlar hosil qilgan kuch maydonida elektronlarning harakatini ta'riflash mumkin bo'ldi. \vec{k} – трансляция вектори \vec{a} :

Атомларнинг жойлашувидаги даврийлик улар ҳосил қилган ва электронларнинг ҳаракатини бошқарувчи потенциал $U(\mathbf{r})$ га ҳам хос бўлиб, Блох теоремаси билан ифодаланади:


$$U(\mathbf{r}) = U(\mathbf{r} + \mathbf{a}). \iff U(\mathbf{r}) = U_0(\mathbf{r}) e^{i\mathbf{k}\mathbf{r}}. \quad (2.6)$$

Bunda \mathbf{r} – elementar yacheyka ichida elektron joylashgan nuqtaning radius-vektori, \mathbf{k} – teskari panjara vektori. (2.6)-shartga mos funksiya Blox funksiyasi deyiladi.



2.1-rasm. Chapda - kristall panjarada atomlarning joylashuvi va elektronlarning xaotik harakati. O'ngda – musbat zaryadli ionlar va manfiy zaryadli elektronlarning o'zaro joylashuvi natijasida zaryad neytralligi ta'minlanishi

Natijada kristall panjaradagi atomlar hosil qilgan potensial $U(\mathbf{r})$ grafigi aslida 2.2a-rasmda ko'rsatilganday bo'ladi.



2.2-rasm. Atom potentsiallarining umumlashtirilgan taqsimlanishi (a) va Kronig-Penni modelida ishlatilgan to'g'ri to'rtburchak potensial (b)

Ammo bunday potensial maydonda elektronlar holati uchun Shredinger tenglamasini yechish iloji yo'qligidan uni soddalashtiriladi. Natijada 2.2b –rasmda ko'rsatilgan soddalashtirilgan potensial ta'sirida harakatlanayotgan elektron uchun stasionar (vaqtga bog'liq bo'lmagan) Shredinger tenglamasi potensial to'siqdan chapda, to'siq ichida va to'siqdan o'ngda quyidagicha yoziladi:

$$\begin{aligned} \nabla^2 \psi(x) - \lambda^2 \psi(x) &= 0, & -b \leq x \leq 0; \\ \nabla^2 \psi(x) - \chi^2 \psi(x) &= 0, & 0 \leq x \leq a. \end{aligned} \quad (2.7)$$

$$\lambda^2 = 2m(U_0 - E) / \hbar^2, \quad \chi^2 = 2mE / \hbar^2.$$

Bu tenglamalarning yechimi ko'rsatilgan uchala hudud uchun

$$\left. \begin{aligned} \psi_1(x) &= C e^{\lambda x} + D e^{-\lambda x}, & -b \leq x \leq 0 \\ \psi_2(x) &= A e^{\chi x} + B e^{-\chi x}, & 0 \leq x \leq a \\ \psi_3(x) &= C_1 e^{\lambda x} + D_1 e^{-\lambda x} = e^{i\varphi} [C e^{\lambda(x-a)} + D e^{-\lambda(x-a)}], & a \leq x \leq a+b \end{aligned} \right\} \quad (2.8)$$

ko'rinishida bo'ladi.

Chegara shartlari

$$\begin{aligned}\psi_1(0) &= \psi_2(0), & \psi_2(a) &= \psi_3(a), \\ \psi_1'(0) &= \psi_2'(0), & \psi_2'(a) &= \psi_3'(a),\end{aligned}\quad (2.9)$$

uchun (2.8) yechimning koeffitsiyentlari aniqlanadigan sekulyar tenglamalar tizimidan

$$\begin{aligned}A + B - C - D &= 0, \\ i\chi A - i\chi B - \lambda C + \lambda D &= 0, \\ e^{i\chi a} A + e^{-i\chi a} B - e^{i\varphi - \lambda b} C - e^{i\varphi + \lambda b} D &= 0, \\ i\chi e^{i\chi a} A - i\chi e^{-i\chi a} B - \lambda e^{i\varphi - \lambda b} C + \lambda e^{i\varphi + \lambda b} D &= 0.\end{aligned}\quad (2.10)$$


topiladigan λ va χ o'zaro hamda φ va energiya bog'lanadi:

$$\frac{\lambda^2 - \chi^2}{2\lambda\chi} \sin \chi a \operatorname{sh} \lambda b + \cos \chi a \operatorname{ch} \lambda b = \cos \varphi.\quad (2.11)$$

Kronig va Penni bu tenglamani grafik usulda yechib, elektronlarning energiyasi uchun ruxsat etilgan va taqiqlangan qiymatlar (o'tkazuvchanlik hamda valent zonalari va taqiqlangan zonalar) mavjudligini aniqlashdi (2.3-rasm). Bunda

$$K = mbaU_0 / h^2,$$

$$k = \varphi / a$$



2.3-rasm. Kronig-Penni modelida ruxsat etilgan va taqiqlangan energetik zonalar

Mana shu soddalashtirilgan model asosida metallar, dielektriklar va yarimo'tkazgichlar qanday farq qilishi ma'lum bo'ldi (2.4-rasm):


metallarda taqiqlangan energetik zonalar yo'q, absolyut nol temperaturada elektronlar band qilgan oxirgi energetik zona (valent zonasi) bilan undan keyingi bo'sh

zona (o'tkazuvchanlik zonasi) qo'shilib ketadi va harorat oshganda elektronlar valent zonasidan o'tkazuvchanlik zonasiga bimalol o'ta oladi va, demak, zaryad tashishda qatnasha oladi (namuna orqali elektr toki o'tad);

- dielektrlarda valent zonasi bilan o'tkazuvchanlik zonasi o'rtasida taqiqlanan zona bor, va elektronlar valent zonasidan o'tkazuvchanlik zonasiga o'tishlari uchun ularga kattagina energiya berish (masalan, kuchli qizitish) lozim. Odatda taqiqlangan zonasining kengligi 3 eV dan katta materiallar dielektrlar deb hisoblanadi va ularda xona temperaturasida elektr o'tkazuvchanlik e'tiborga olmaslik darajasida bo'ladi.

- yarimo'tkazgichlar taqiqlangan zonasining kengligi odatda 2 eV dan kam bo'lib, xona temperaturasida sezilarli elektr o'tkazuvchanligi mavjud.

Ammo keyingi yillarda taqiqlangan zonasining kengligi 3 eV dan kattaroq moddalarni ham yarimo'tkazgichlar qatoriga qo'shib, ular asosida diodlar, tranzistorlar tayyorlay boshlashdi. Bunday diod va tranzistorlar yuqori haroratda, katta toklarda va yuqori kuchlanish ostida ishlashga qodirlik bilan tadqiqotchilarni hamda sanoat vakillarini jalb etmoqda.




2.4-rasm. Metal, yarimo'tkazgich va dielektrlarda energetik zonalar

Metallarda elektronlarning energetik holatini va harakati imkoniyatlarini tasvirlash uchun Fermi energiyasi, Fermi sathi, Fermi to'liqin uzunligi tushunchalari kiritiladi. Fermi energiyasi E_F bilan biz yuqorida (2.3) taqsimlanish funksiyasida tanishgan edik. Fermi sathi impuls (Fermi to'liqin vektori) fazosida Fermi energiyasi E_F ga mos izoeneretik sath bo'lib, uni hatto metallarning pasporti deb ham atashadi (2.5-rasm), chunki bu sathning shakli elektronlarning energetik holati va harakatini to'la belgilaydi. Fermi energiyasiga (Fermi sathiga) mos keladigan elektronning to'liqin uzunligi

$$\lambda_F = \sqrt{\frac{2\pi^2 \hbar^2}{m^* E_F}}$$


Fermi to'liqin uzunligi deb ataladi. Bunda $\hbar = 1,055 \cdot 10^{-34} \text{ J}\cdot\text{s} = 6,582 \cdot 10^{-16} \text{ eV}\cdot\text{s}$ – Plank doimiysi, $m^* = \hbar^2 [d^2k/dE^2]$ - elektronning effektiv massasi.




Мис, кумуш ва олтиннинг Ферми сатҳи



Бериллийнинг Ферми сатҳи



Маргумушнинг Ферми сатҳи



Графитнинг Ферми сатҳи

3-ma`ruza. Nanomateriallar. Fulleren, uglerod nanonaylari va grafen. Ularning fizik xususiyatlari va amaliyotda qo`llanishi


REJA

- 3.1. Fulleren nima va uning qo`llanilishi
- 3.2. Fullerenlarning qo`llanilishi
- 3.3. Uglerod nanonaylari va qo`llanilishi
- 3.4. Grafen

Tayanch iboralar: fulleren, uglerod, grafen, nanonaylar, fullerit, alotropik shakl, ugleplastik, grafen.


3.1. Fulleren nima va uning qo`llanilishi


Fulleren haqida bilishimiz uchun, oldin ayrim narsalarni qayta eslab o`lishimiz va ko`z oldimizga keltirishimiz dardkor. Barchamizga ma`lumki uglerodning uchta allotropic ko`rinishi mavjuddir. Ya`ni: олмос, графит, кюя. 1-rasmda uglerodning ayrim tasvirlarini ko`rishimiz mumkin.



3.1-rasm.Uglerodning allotropic tasvirlari.


Bundan tashqari uglerodning allotropic shakllarini ham turli ko`rinishlari mavjud. Bu narsalar ma`lum bo`lsada, yana bir bor ko`z oldimizga keltirib olishimiz kerak.





3.2-rasm. Uglerodning alotropik shakllari.

Endi fulleren nima, degan savolimizga javoblar izlaymiz. Fulleren 1985 yilda kashf qilingan bo'lib, formulasi C_n ko'rinishida yoziladi. Strukturaviy tuzilishi C_{60} da eng kichkina va juda chiroyli ko'rinishga ega bo'ladi (3-rasm). Yana ajoyib xususiyati shundaki xona haroratida fulleren simmetriya o'qi atrofida 10^{12} aylanish/c tezlik bilan aylanadi.



3.3-rasm. C_{60} fullerenning strukturaviy ko'rinishi.


C_{60} fullerenda 5-karrali simmetriya elementlari bor. Buni pentagon ham deb, atashadi. Bunday simmetriya noorganik kristallar uchun ta'qiqlangan bo'lib, biz bu fullerenni organik kristall deyishimizga to'g'ri keladi. C_{60} fullerenning har xil holatlardagi, ya'ni yagona molekula, qattiq va eritma holatlaridagi xossalariga bag'ishlangan ko'plab masalalar bor. Harorat 600K dan past bo'lgan holatlarda C_{60}

fullereni molekulyar kristallar hosil qiladi.

Gaz fazasidan yuqori tozalikdagi (99,98% ga yaqin) kristallar o'stirish mumkin. Qattiq holatdagi fullerenlar *fulleritlar* deb ataladi.


Fullerenning o'ziga xos bo'lgan muhim xususiyatari.

- fullerenning ichiga turli elementlarning atomlarini va hattoki butun molekulalarini ham joylashimiz mumkin
- yozuv zishligi $4 \cdot 10^{12}$ bit/sm² gacha bo'lgan magnit xotiraga ega
- mashinalarning ishqalanuvchi qismlari uchun moy



3.4-rasm.Fullerenlarning turlari.

Toza fullerit yorug'lik ta'sirida parchalanib ketadi, shuning uchun uni faqat qorong'uda saqlash mumkin. Fulleritni ishqoriy metallar bilan legirlash orqali o'tkazuvchanlik va hatto o'ta o'tkazuvchanlikni hosil qilish mumkin.



3.5-rasm. Fulleritning kristal strukturasi.

3.6-rasm. Fullerenning ichiga joylashtirilgan molekula

3.2. Fullerenlarning hayotda qo'llanilishi

30-yildan ortiqroq vaqt ichida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdi-ki, fullerenlarning fan va texnikaning turli sohalarida, shu jumladan tibbiyotda keng qo'llashga bo'lgan umid puchga chiqqan edi. Buning isbotini maqola va kitoblarning nomlaridan ham anglashimiz mumkin: (Наноформы углерода для фотовольтаиков: миф или реальность [1]., Мифы нанотехнологий [2]., 1. Martin N. Carbon nanoforms for photovoltaics: myth or reality? *Adv Energy Mater.* 2017;7:1601102., <https://doi.org/10.1002/aenm.201601102>., 2. http://www.debaty.org-/article/tehnology_ukr/analitik_teh/380.html.)


Kosmetika sohasida fullerenlarning qo'llanilishi. Inson terisining bir necha xil himoya vositalari mavjud va yillar davomida foydalanib kelinmoqda. Ammo bu vositalarni qo'llab-quvvatlash uchun mahalliy yordamchi vositalar (masalan, antioksidantlar) kerak. Bundan tashqari, ba'zi antioksidantlar mahalliy (terining ayrim qismlari orqali) qo'llanganda yallig'lanishga qarshi va antikantserogen ta'sir ko'rsatadi. Terining eskirishi oksidlanish kuchayishi oqibati bo'lib, ko'pgina tadqiqotchilar fullerenlar asosida yoshartiruvchi qorishmalar (rejuvenation products) tayyorlash mumkin, - deb hisoblaydi, chunki fullerenlarning antioksidant xossasi yuqori hisoblanadi. Aynan shu antioksidant xossasi fullerenlarni terining oftobdan kuyishiga qarshi kremlar tayyorlash imkonini beradi.

Tibbiyot sohasida fullerenlarning qo'llanilishi. Allergiyaga qarshi vosita va VICH-infektsiyaga qarshi vosita sifatida keng qo'llaniladi.

Texnika sohasida qo'llanilishi. Fullerenlar akkumulyatorlarda va elektr batareyalarida qo'shimcha sifatida ishlatiladi. Hamda yuqori bosim ostida sun'iy olmos olishda qo'shimcha sifatida foydalaniladi va olmos chiqishini deyarli 30 % ga oshiradi. Polimer quyosh batareyalarida, yong'indan himoya qiluvchi bo'yoqlarda ham ishlatiladi. Fullerenlarning qutblanmaydigan suyuqlikda eritmasi optik zatvorlar sifatida ham foydalaniladi va hokazo.

3.3. Uglerod nanonaylariva qo'llanilishi

Uglerodli nanonaylarning diametri 10 nm (15mkm) va uzunligi 1 mkm (bir necha sm) gacha bo'ladi. Diametrlari har xil bo'lganligi sababli, nanonaylarni bir-biriga kiygizish mumkin bo'ladi (8-rasm).



3.7-rasm. Uglyerodli nanonay

8-rasm. Diametrlari har xil bo'lgan nanonaylarni bir-biriga kiygizilgan holati.

Uglyerod nanonaylarining xossalari. Mexanik jihatidan uglyerodli nanonaylar o'ta pishiq vaegiluvchan (kauchukka nisbatan 1000 marta) bo'ladi. Elektr o'tkazuvchanligi diametriga bog'liq bo'lib, yarimo'tkazgichdan metallgacha o'zgaradi. Metall o'tkazuvchanlikka ega nanonaylar elektr tokini misga nisbatan deyarli 1000 marta yaxshi o'tkazadi. Bunda katta tok ta'sirida mis erib, qurilma ishdan chiqadi, nanonayda esa xuddi shunday tok ta'sirida hech qanday o'zgarish bo'lmaydi, chunki nanonaylarning issiqlik o'tkazuvchanligi juda yuqori bo'lib, hatto-ki olmosdan 2 baravar kattadir. Past haroratlardan to 2200°C gacha nanonaylar pishiqligini saqlab qoladi.

Uglyerod nanonaylarining xossalari.


Issiqlik o'tkazuvchanligi
($Vt\ m^{-1}K^{-1}$):

Kumushda - 430

Misda - 401


Olmozda - 900-2300 gacha.

3.9-rasm. Nanonayning issiqlik o'tkazuvchanligi uzunligiga bog'liq



Bir devorli nanonaylar. Bir devorli nanonaylar litiy-ion akkumulyatorlarda, ugleplastik materiallarda, avtomobil sanoatida ishlatiladi. Kislota-qo'rg'oshin akkumulyatorlarda bir devorli nanonaylar qo'shilishi qayta zaryadlashlar sonini ancha oshiradi. Bir devorli nanonaylarning chidamlilik koeffitsienti 50 GPa, po'latda esa 1 GP gateng [7].


Nanonaylarni zaharli deb ham hisoblashadi. Bu qay darajada to'g'ri? Rostdan ham zaharlimi? Ha, ular zaharli bo'lib, tirik organizmlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, tirik xujayralarga salbiy ta'siridan foydalangan holda uning bu xususiyatidan tibbiyotda (davolashda) va boshqa sohalarda foydalanishimiz mumkin. Nanonaylarning foydali va zararli jihatlari obdon o'rganilishi lozim.



3.10-rasm. Ichak tayoqchasining xujayralariga nanonaylarning ta'siri:

(a) nanonaylar ta'siridan oldin;


(b) nanonaylar ta'siridan keyin.



RFA akademigi Mixail Predtechenskiy sanoat miqyosida yaratgan bir devorli uglerod nanonaylarini tayyorlash texnologiyasi OCSiAl o'ta yuqori sifatli nanonaylar ishlab chiqarib, ularni jahon bozorida shunday narxlarda taklif qiladi-ki, natijada nanonaylarning sanoatda qo'llanilishi birinchi marta iqtisodiy jihatdan oqlangani isbotlagan bo'ladi[8],[9].2002 yilda nanonaylarning jahon bozori 1 mlrd. dollardan optiq edi. 2018 yilda Rossiyaning Novosibirsk shahrida uglerod nanonaylari ishlab chiqaruvchi sanoat qurilmasi ishga tushirildi. Yozishlaricha, uning mahsuloti yiliga 1 mlrd. dollarga borar ekan. Ugleplastiklar – nanonaylar bilan armirovka qilingan (mustahkamlangan) plastic moddalar bo'lib, qimmatbaho sport anjomlari, avtomobil va mototexnikada, aviakosmik sohada (samolyotlarning va raketalarning qismlari, masalan, fyuzelyaji va qanotlari), harbiy sanoatda ishlatiladi.

3.4. Grafen

Grafen - bu uglerodning ikki o'lchovli allotropik modifikatsiyasi bo'lib, qalinligi bir atomli uglerod atomlari qatlamidan hosil bo'ladi. Uglerod atomlari sp^2 gibridlanishda bo'lib, s- va p-bog'lar orqali olti burchakli ikki o'lchovli kristall panjaraga ulanadi. Uni ommaviy kristaldan ajratilgan qatlamli grafitning bir tekisligi sifatida ko'rsatish mumkin. Barcha ma'lum bo'lgan materiallar (bir xil qalinlik uchun) orasida eng yuqori bo'lgan zaryad tashuvchilarning yuqori harakatchanligi uni turli xil ilovalarda, xususan, nanoelektronika uchun kelajakda asos sifatida foydalanish uchun istiqbolli materialga aylantiradi.



3.11-rasm. Grafitdagi grafen qatlamlari va grafenning tuzilishi

Grafenlarning xususiyatlari:

- rekord darajada yuqori issiqlik o'tkazuvchanlik
- eng yaxshi po'latga nisbatan yuzlab marta yuqori mexanik xossalar

va egiluvchanlik

- hech narsa bilan taqqoslab bo'lmaydigan elektr o'tkazuvchanlik
- yuqori (3000°S dan baland) erish temperaturasi
- boshqa moddalar (gazlar) o'ta olmasligi va shaffofligi
- integral mikrosxemalardagi kremniyni almashtirish


Grafenlar yuqoridagi ajoyib xususiyatlarga ega bo'lganligidan, ko'plab sohalarda qo'llanilib kelinmoqda. Ya'ni integral mikrosxema va mikrochiplarda, alohida gaz molekulasi sifatida detektorlarda, grafenli nanolenta sifatida, ionistorlarda (superkondensatorlar), g'ovakli grafenli ionli membranalarda, gaz o'tkazmaydigan qoplamalarda, sensorli va JK ekranlarida. (13-rasm)

Ilmiy laboratoriyalarda grafen olishning hozirda mavjud usullaridan biri yuqori yo'naltirilgan pirolitik grafitdan grafit qatlamlarini mexanik bo'linish yoki tozalashga


asoslangan. Bu yuqori tashuvchining harakatchanligi bilan eng yuqori sifatli namunalarni olish imkonini beradi. Ushbu usul keng ko'lamli ishlab chiqarishdan foydalanishni o'z ichiga olmaydi, chunki bu qo'lda bajariladigan protsedura. Boshqa taniqli usullar - kremniy karbid substratining termal parchalanish usuli va kimyoviy bug'larni cho'ktirish - sanoat ishlab chiqarishiga ancha yaqin. 2010-yildan buyon oxirgi usul yordamida yetishtirilgan metr o'lchamdagi grafen varaqlari mavjud.

Tashuvchilarning energiya spektrining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, grafen o'ziga xos, boshqa ikki o'lchovli tizimlardan farqli o'laroq, elektrofizik xususiyatlarni namoyish etadi. Grafen olingan birinchi elementar ikki o'lchovli kristal edi, ammo keyinchalik silis, fosforen, germanen kabi boshqa materiallar olingan.

Andrey Geym va Konstantin Novoselov 2010 yilgi fizika bo'yicha "ikki o'lchovli material - grafen bilan ilg'or tajribalar" uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lishdi. 2013 yilda Mixail Katsnelson grafen sohasida ilmiy faoliyat yuritadigan asosiy kontseptsiya va tushunchalarni ishlab chiqqani uchun Spinoza mukofoti bilan taqdirlangan.



3.12-rasm. Grafen transistor va uning zona tuzilishi



3.13-rasm. Grafenlarning turli sohalarda qo'llanilishi.

4-ma'ruza. Nanostrukturalarda fundamental elektron hodisalar (I)

Reja

4.1. Kvant o'lcham effektlari.

4.2. Kvant chegaralanishi.

4.3. Energetik holatlar zichligi.

4.4. Nanozarralar va ularning fizik xususiyatlari

Tayanch iboralar: Kvant o'lcham, de Broyl to'lqin uzunligi, fazoviy kvantlanish, energetik sathlar, kvant o'ra, nanoip, kvant nuqta, nanoobekt, nanozarra

4.1. Kvant o'lcham effektlari

Elektron tuzulmalarda kvant o'lchamli effektlar l_k uzunlik rolini aniq kvant kattalik bo'lgan elektronlarning de Broyl to'lqin uzunligi λ oynaganida, ya'ni tuzulmaning o'lchami hech bo'lmaganida birorta yo'nalish bo'yicha λ taribida bo'lganida kuzatiladi. Kvant o'lchamli effektlar elektronlarning to'lqin tabiati bilan bog'langan.

Nanoo'lchamli sohalarda elektronlarning o'zini tutishi uning bunday muhit chegaralaridan qaytishi, elektron to'lqinlarining interferensiyasi, to'lqinlarning potentsiyal to'siqlardan o'tishlari bilan aniqlanadi. Bu hodisalar bilan nanotuzilmalardagi kvant o'lchamli effektlar, masalan, o'z ko'chishlarida fazoviy cheklanishlarga ega bo'lgan elektronlar energiyasining kvantlanishi, elektronlarning nanometrli dielektrik qatlamlar orqali o'tishi, nanosimlar qarshiligining kvantlanishi va h.k.lar tushuntiriladi.

Kristalllardagi erkin elektronlarni qarab chiqamiz. Kristall boylab nafaqat erkin ko'cha oladigan, balki tashqi ta'sirlar ostida o'z energiyasini o'zgartira oladigan elektronlar erkin hisoblanadi.

Metallarda unchalik katta bo'lmagan haroratlarda E_F Fermi sathi yaqinidagi elektronlarnigina erkin deb hisoblash mumkin. Shuning uchun erkin elektronlar uchun

$$E_{kin} \approx E_F \approx 5 \text{ eV} = 8 \cdot 10^{-19} \text{ J}, \quad (2)$$

bo'ladi.

Metallarda $m^* \approx m_0 = 9,1 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$, bu erda m_0 - erkin elektron massasi. E_{kin} va m_0 larning qiymatlarini λ ning formulasiga qoyib kristall panjara doimiysi kattaligi tartibidagi $\lambda \approx 0,55 \text{ nm}$ qiymatga ega bo'lamiz.

Yarimo'tkazgichlarda xona haroratida $E_{kin} \approx kT = 0,026 \text{ eV}$ ga teng bo'ladi. Elektronning effektiv massasi turli yarimo'tkazgich materiallarda keng oraliqda o'zgaradi. Masalan, kremniy uchun $m^* = 0,92m_0$ ga GaAs uchun $m^* = 0,068m_0$ ga, yarimmetal vismut uchun esa $m^* = 0,01m_0$ ga teng va shu tufayli bu materiallar uchun

mos ravishda $\lambda = 8; 30; 80$ nm bo'ladi.

Yarimo'tkazgichlarda de Broyl to'lqin uzunligi matallarga qaraganda sezilarli katta bo'lgani uchun kvant o'lchamli effektlarni yarimo'tkazgichlarda amalga oshirish texnologik nuqtai nazardan ancha oson bo'ladi. Shuning uchun bu effektlarni tadqiq qilish va elektronikada ishlatish uchun nanotuzilmalarni shakl-lantirish asosan yarimo'tkazgichlarda amalga oshiriladi.

Shuni takidlash lozimki, kvant o'lchamli effektlarni, elektronlarning o'rtacha erkin yugurish yo'li qaralayotgan soha o'lchamidan ortiq bo'lganida, sohaning chegaralari yuqori darajadagi mukammallikka ega bo'lib, de Broyl to'lqinlarini undan ko'zgu qaytadi degan shartlarda kuzatish mumkin.

Gazlarning molekulyar-kinetik nazariyasida molekularlarning erkin harakat masofasi l : gaz solingan idishning o'lchamlari $L \gg l$ bo'ladi. Aks holda gaz qonunlari ishlamay qoladi. Elektronlar uchun ikkita xos masofa bor: erkin harakat masofasi l va De-Broyl to'lqin uzunligi λ .

Qaysi biri oldinroq buziladi?

Odatda metallarda elektronlarning erkin harakat masofasi $l \approx 10^{-5} - 10^{-2}$ sm, de-Broyl to'lqin uzunligi esa $\lambda \approx 10^{-6} - 10^{-7}$ sm. Demak, birinchi navbatda namuna yuzasining ta'siri seziladi.

4.2. Kvant chegaralanishi

Fazoviy kvantlanish qonuniyatlari:

Erkin elektronlar uchun Shredinger tenglamasi

$$\frac{\hbar^2}{2m} \nabla^2 \psi + E\psi = 0.$$

Yechimi $\psi(x) = C e^{i\mathbf{k}\mathbf{r}}$, $\mathbf{k} = \mathbf{p} / \hbar$ -to'lqin vektori, elektronlarning energiyasi

$$E = p^2 / 2m = \hbar^2 k^2 / (2m).$$

No'rmaga keltirilganda $\psi(x) = L^{3/2} e^{i\mathbf{k}\mathbf{r}}$ L -namunaning o'lchami (kub shaklida deb hisoblaymiz).

Qachon kvant effektlari sezilarli bo'ladi?

1. Qo'shni diskret energetik sathlar orasidagi masofa $E_n - E_{n-1}$ issiqlik energiyasi kT dan katta bo'lishi kerak: $E_n - E_{n-1} > kT$.

2. Qo'shni diskret energetik sathlar orasidagi masofa $E_n - E_{n-1}$ Fermi

energiyasi E_F dan katta bo'lishi kerak: $E_n - E_{n-1} > E_F$


3. Elektronlarning sochilishi hisobiga energetik sathlarning kengayishi ular orasidagi masofadan oshmasligi kerak:

$$E_n - E_{n-1} \approx \frac{h}{\tau} = \frac{he}{m^* \mu} \Delta E \sim \frac{h^2}{m^* a^2}, \quad \tau = \frac{l}{v} \sim l \frac{am^*}{h}$$

ekanligini hisobga olsak, oldingi shart $a \ll l$ ko'rinishga keladi.

Kvant o'ra – bu ikki o'lchamli (2D) ob'ektdir. Bu kristallning juda yupqa qatlami bo'lib, uning qalinligi d da Broyl to'lqin uzunligi bilan solishtiradigan darajada bo'ladi, ya'ni $d \propto \lambda$. Bunday qatlamdagi elektronlar tizimi ikki o'lchamli elektronlar gazi (yoki 2D- gaz) deb ataladi.

Kvant o'ra qonuniyatlari:



4.1-rasm. Kvant o'raning parametrlari

$$-\frac{\hbar^2}{2m^*} \frac{\partial^2}{\partial x^2} \psi(x) + \frac{m^* \omega_0^2 x^2}{2} \psi(x) = E \psi(x)$$


$$E_n = \hbar \omega_0 \left(n + \frac{1}{2} \right), \quad n = 0, 1, 2, \dots$$


$$\psi_n(x) = \frac{1}{\sqrt{2^n n!}} \left(\frac{m^* \omega_0}{\pi \hbar} \right)^{1/4} \exp\left(-\frac{m^* \omega_0 x^2}{2\hbar} \right) H_n \left(\sqrt{\frac{m^* \omega_0}{\hbar}} x \right)$$

$$U(x) = Kx^2 / 2, \quad \omega_0 = \sqrt{K / m}.$$


$H_n(x)$ - Ermit tenglamasining yechimi:

$$H_n''(x) - 2xH_n'(x) + 2nH_n(x) = 0.$$





4.2-rasm. Ermit funksiyasi $H_n(x)$ ning grafiklari ($n = 1-10$, $[m^*\omega_0/\hbar]^{1/2}$ ga normirovka)



4.3-rasm. Birinchi sakkiz holatning koordinata ko'rinishidagi to'lqin funksiyalari, $n = 0 \dots 7$. x koordinatasi gorizontal, qiymat vertikal ravishda chiziladi to'lqin funksiyasi $\psi_n(x)$. Grafiklar standartlashtirilmagan

Fazoviy kvantlanish qonuniyatlari

To'lqin funksiyasining davriyligi tufayli uning argumenti x ni $x + L$ ga almashtirsak hech narsa o'zgar olmaydi (Born-Karmanning chegara shartlari). Demak, to'lqin vektorining komponentlari kvantlangan:

$$k_x = \frac{2\pi}{L} n_1, \quad k_y = \frac{2\pi}{L} n_2, \quad k_z = \frac{2\pi}{L} n_3.$$

Shunga mos ravishda to'lqin funksiyasi

$$\psi(x, y, z) = L^{3/2} \exp \left[i \frac{2\pi}{L^{3/2}} (n_1 x + n_2 y + n_3 z) \right].$$

Elektronlarning energiyasi ham kvantlangan:

$$\psi(x, y, z) = L^{3/2} \exp \left[i \frac{2\pi}{L^{3/2}} (n_1 x + n_2 y + n_3 z) \right].$$


4.3. Energetik holatlar zichligi.

Namuna o'lchamlarini kamaytirganimizda berilgan to'lqin vektoriga mos kvant sonlari n kamayadi, qo'shni energiya sathlari orasidagi masofa $E_n - E_{n-1}$ osha boradi.

Ammo

$$k^2 = k_x^2 + k_y^2 + k_z^2,$$

va k_z ning cheklanishi k_x va k_y ning mumkin bo'lgan qiymatlarini o'zgartiradi.



Hajmdor namuna Kvant o'rasi va nanoip Kvant nuqtasi

4.4-rasm. Nanoobektlarda elektronlar energetik spektrining o'zgarishi

Qalinligi a bo'lgan metal plastinkada elektronlarning holati haqidagi masalaning yechimi biroz murakkabroq, lekin pirovardda chegara shartlari $\psi(0) = 0$ va $\psi(a) = 0$ bilan quyidagi algebraik tenglamaga kelamiz:

$$\arcsin \left\{ kh / (2m_z^* U_0)^{1/2} \right\} = (n\pi - ka) / 2.$$

Bu tenglamada ham elektronlarning to'liqin vektori va energiyasi kvantlanganligini ko'ramiz:

$$k_n = p_n / \hbar = n\pi / a,$$

$$E_n = \hbar^2 k_n^2 / 2m^* = \hbar^2 n^2 \pi^2 / (2m^* a) \quad (n = 1, 2, 3 \dots).$$

$E > U_0$ bo'lsa elektronlarning potensial o'radagi harakati (5-slayd) infinit (cheklanmagan, elektron har qancha uzoqqaketishimurkin) bo'ladi. Agarda $E < U_0$ bo'lsa, elektronning to'liqin funksiyasi $x < 0$ da ham, $x > a$ da ham eksponensial kamayadi, ya'ni elektron $0 \leq x \leq a$ oralig'ida bog'langan.


Izoenergetik (o'zgarmas energiya) sathlari E , p_x va p_y koordinatalarida aylanma paraboloid ko'rinishida bo'ladi:

$$E = \frac{p_x^2}{2m_x^*} + \frac{p_y^2}{2m_y^*} + \frac{n^2 \hbar^2 \pi^2}{2m_z^* a^2}.$$

Fermi sathi n_{\max} ning mumkin bo'lgan maksimal qiymatlarini cheklaydi:

$$n_{\max} \leq \left(2m_z^* a^2 E_F / (\pi^2 \hbar^2) \right)^{1/2} \leq n_{\max} + 1.$$

Ikki o'lchamli elektron gazning bir zonachadagi zichligi (birlik hajmga va birlik energiya oralig'iga to'g'ri keladigan holatlar soni) energiyaga bog'liq emas.



$$N_j(E) = S m_z^* / (\pi \hbar)$$

4.5-rasm. Holatlar zichligini hisoblashga doir

Bunda S – namunaning yuzasi. Agar bir necha zonachalar to'lgan bo'lsa, hammasi uchun yig'indini hisoblash kerak.

Endi metall plastinkaning fazoviy kvantlanish tufayli energetik zonalar tuzilish o'zgaradigan minimal qalinligini chamalaymiz. Yaxshi o'rganilgan vismut elementi chalametall bo'lib, valent va o'tkazuvchanlik zonalarini $E_n = 30$ meV ga ustma ust. O'lchamli kvantlanganda elektronlarning energiyasi

$$E_e = \hbar^2 \pi^2 / (2m_{ze}^* d^2)$$

bo'lgan birinchi zonachasi (o'tkazuvchanlik zonasi) yuqoriga siljiydi, kovaklarning energiyasi

$$E_h = \hbar^2 \pi^2 / (2m_{zh}^* d^2)$$

bo'lgan birinchi zonachasi (valent zonasi) esa pastga siljiydi. Oqibat vismut plastinkasining qalinligi kritik qiymat

$$d = \hbar \pi [(E_n/2)(1/m_{ze}^* + 1/m_{zh}^*)]^{1/2}$$

ga yetganda bu zonachalar orasida energetik tirqish (taqiqlangan zona) hosil bo'ladi.

Vismut uchun ($m_{zh}^* = 0,1m_0$, $m_{ze}^* = 0,01 m_0$, $E_n = 30$ meV) yarimo'tkazgichga aylanishning kritik o'lchami $d = 35$ nm bo'lib chiqdi.

4.4. Nanozarralar va ularning fizik xususiyatlari


Nanozarrachalarni atomlar, ionlar yoki molekulalardan tashkil topgan va hajmi 100nm dan kam bo'lgan ob'ektlar deb atash odatiy holdir.

Nanozarrachalarning fizik-kimyoviy xossalari ularning o'lchamiga bog'liqligi *o'lchovli effekt* deyiladi . Bu nanokimyodagi eng muhim effektlardan biridir. U allaqachon klassik fan, ya'ni kimyoviy termodinamika nuqtai nazaridan nazariy tushuntirishni topgan. Shunday qilib, erish haroratining o'lchamga bog'liqligi nanozarrachalar ichidagi atomlar qo'shimcha sirt bosimini boshdan kechirishi, ularning Gibbs energiyasini o'zgartirishi bilan izohlanadi. Gibbs energiyasining bosim va haroratga bog'liqligini tahlil qilib, erish harorati va nanozarrachalar radiusi bilan bog'liq tenglamani osongina olish mumkin - bu Gibbs-Tomson tenglamasi deb ataladi:

$$T_{\text{erish}}(r) = T_{\text{erish}}(\infty) \left(1 - \frac{2\sigma_{\text{TB-K}}}{\Delta H_{\text{erish}} \rho_{\text{TB}} r} \right),$$


Nanoo'lchamli obektlarni o'lchamlari boyicha quyidagicha bo'linadi:

uch o'lchovli (3D) tuzilmalar- ular nanoklasterlar (*klaster*- to'da);




4.6-rasm

2) tekis ikki o'lchovli (2D) ob'ektlar - nanoqatlamlar;




4.7-rasm

3) chiziqli yoki bir o'lchovli (1D) tuzilmalar - nanoiplar yoki nantolalar (*nano simlar*);



4.8-rasm

4) nol o'lchamli (0D) ob'ektlar - nanodotlar yoki kvant nuqtalari deb ataladi.



4.9-rasm. Uglerod nanomateriallar

Nanozarrada anizotropiya nanozarrachalar xossalari juda ko'p o'zgarishlarga olib keladi. Oltin, kumush va platinaning sharsimon bo'lmagan nanopartikullari ajoyib optik xususiyatlariga ko'ra turli xil dasturlarni topmoqda va tadqiqot sohasida katta qiziqish uyg'otmoqda. Nanoprizmalarning sferik bo'lmagan geometriyalari yuqori samarali tasavvurlar va kolloid eritmalarining chuqurroq ranglarini keltirib chiqaradi. Zarralar geometriyasini sozlash orqali rezonans to'lqin uzunliklarini siljitish imkoniyati ushbu nanozarralarni molekulyar yorliqlash sohasida, biomolekulyar tahlillar, iz metallarini aniqlash va nanotexnik qo'llanmalar uchun ishlatish uchun juda qiziq. Anizotropik nanopartikullar har bir qo'zg'aluvchan o'qi uchun alohida rezonans rejimini ko'rsatib, o'ziga xos yutilish xatti-harakatlarini va polarizatsiyalangan nur ostida stoxastik zarrachalar yo'nalishini namoyish etadi. Ushbu xususiyatni har kuni ushbu nanozarralarni yuqori rentabellikga tayyorlash uchun sintez qilish sohasida yangi ishlanmalar olib borilayotganligi bilan izohlash mumkin.



4.10-rasm. Har xil o'lchamdagi (2 dan 5 nm gacha, chapdan o'ngga) kolloid CdTe zarralari suspenziyalarining floresansi. Barcha lampalar yuqoridan bir xil to'lqin uzunligidagi ko'k nur bilan yoritilgan.

5. Nanostrukturalarda fundamental elektron hodisalar II.

Ikki o'lchovli "elektron gaz". Energetik holatlar zichligi. Ballistik transport. Metall, dielektrik (oksid), yarimo'tkazgich (MDYa yoki MOP) tranzistorlar. Geterostrukturalar

REJA

- 5.1. Ikki o'lchovli "electron gaz"
- 5.2. Energetik holatlar zichligi
- 5.3. Ballistik transport
- 5.4. Metall tranzistorlar
- 5.5. Dielektrik (oksid) tranzistorlar
- 5.6. Yarimo'tkazgich (MDYa yoki MOP) tranzistorlar
- 5.7. Geterostrukturalar


Tayanch iboralar: *geterostruktura, ikki o'lchovli "electron gaz", energetik holatlar zichligi, ballistik transport, metall tranzistorlar, dielektrik (oksid) tranzistorlar, yarimo'tkazgich (MDYa yoki MOP) tranzistorlar*

5.1. Ikki o'lchovli "elektron gaz"

Nano dunyosidagi eng mashhur atama bu kvant cheklashdir. Bunday cheklashlarda IV, III – V, II – VI guruh yarimo'tkazgichlarda bunaqa cheklashlar o'lchami 1 – 25 nm atrofida bo'ladi. Bunaqa "geomatrik" cheklashlar natijasida elektron harakati chegaralanadi va energiya spektridagi o'zgarishlar orqali material xususiyatlari o'zgaradi. Ushbu hodisa kvant – o'lcham effekti deb ham ataladi. Ushbu kvant effekti yarimo'tkazgichdagi zarracha harakatlanish chegarasi o'lchamlari Bor eksiton radiusiga yaqin yoki undan kichik bo'lganda seziladi. Umuman olganda, zarrachaning Bor eksiton radiusi quyidagicha aniqlanadi:

$$a_B = \varepsilon \frac{m}{m^*} a_0 \quad (5.1)$$

bu erda ε - materialning dielektrik singdiruvchanligi, m^* - bu zarrachaning massasi, m - erkin elektronning massasi, va a - vodorod atomining Bohr radiusi. Zarrachalar hajmi Bohr eksiton radiusiga yaqinlashganda, kvant chegaralash effekti eksitonik o'tish energiyasining ortishiga va assimilyatsiya va lyuminesans diapazonidagi bo'shliq energiyasining ko'k siljishiga olib keladi. Bundan tashqari, kvant chegaralash effekti materialning doimiy energiya tarmoqlarida atomnikiga o'xshash diskret energiya sathini yuzaga keltiradi.



5.1 - rasm

5.1-rasmda ko'rsatilgandek, yarimo'tkazgichning doimiy yutilish spektridan farqli o'laroq, energiya holatlari diskret yutilish spektriga olib keladi. Kvant chegaralashlardan biri bu bir yoki bir nechta yo'nalishlardan chegaralangan potensial o'ralardir. Kvant chegaralashlar chegaralash yo'nalishi bo'yicha 3 turga bo'linadi: kvant o'rasi, kvant simi va kvant nuqtalari. Ular quyidagi jadvalda keltirilgan:


Struktura	Kvant tutilish	Erkin o'chamlar soni
Hajmiy	0	3
Kvant devoir/o'tapanjaralar	1	2
Kvant iplar/simlar	2	1
Kvant nuqta/nanokrystallar	3	0

Kvant nuqtalarda zaryad tashuvchilar uch o'lchov bo'yicha cheklangan bo'lib, ularda elektronlar diskret atomga o'xshash energiya spektrini namoyish etadi. Kvant simlari tizimning ikki o'lchamlari cheklanganida hosil bo'ladi. Kvant qudug'ida zaryad tashuvchilar (elektronlar va teshiklar) tekislikda harakat qilishadi va ikki o'lchovli holatda erkin harakatlanishadi. Shuningdek, kvant sonlari diskret qiymatlarda o'zgaradi.

Hajmdor yarimo'tkazgichlar bilan taqqoslaganda, kvant qudug'i o'tkazuvchanlik va valentl zonalari chetiga yaqinroq elektron holatlarining zichligiga ega va shuning uchun tashuvchilarning yuqori konsentratsiyasi polosali emissiyaga hissa qo'shishi mumkin. O'lchov soni qancha cheklangan bo'lsa, energiya miqdorini shunchalik aniqroq aniqlash mumkin. 2D, 1D va 0D yarimo'tkazgichli strukturadagi electron holatlarning zichligi 5.2-rasmda keltirilgan.

0D tuzilmalari juda aniq belgilangan va miqdoriy energiya sathlariga ega. Nanostrukturaning geometrik chegaralash effektini "effektiv massa" yaqinlashuvi modeli yordamida aniqlash mumkin.

Ushbu usul to'siqlarning cheksiz potentsial chegarasiga ega ekanligini hisobga olib, Schredinger tenglamasini yechib, nanostrukturaning cheklangan energiya darajasini taxmin qilishi mumkin. Shredinger tenglamasining kvant nuqta yoki nanokristalda, kvant simida va kvant qudug'ida joylashgan elektronlar uchun "effektiv massa" metodi yechimlari quyidagilar:



5.2 - rasm

Kvant nuqta yoki nanokristal

$$E_{n,m,l} = \frac{\pi^2 \hbar^2}{2m^*} \left(\frac{n^2}{L_z^2} + \frac{m^2}{L_y^2} + \frac{l^2}{L_x^2} \right), \psi = \phi(z)\phi(y)\phi(x)$$

Kvant simi

$$E_{n,m}(k_x) = \frac{\pi^2 \hbar^2}{2m^*} \left(\frac{n^2}{L_z^2} + \frac{m^2}{L_y^2} \right) + \frac{\hbar^2 k_x^2}{2m^*}, \psi = \phi(z) \phi(y) \exp(ik_x x)$$

Kvant o'rasi

$$E_n(k_x, k_y) = \frac{\pi^2 \hbar^2 n^2}{2m^* L_z^2} + \frac{\hbar^2}{2m^*} (k_x^2 + k_y^2), \psi = \phi(z) \exp(ik_x x + ik_y y).$$

2D - elektron gaz (kvant qudug'i)

Past o'lchamli strukturada, elektronning erkin harakati kamida bitta yo'nalishda cheklangan. Masalan, x o'qi bo'ylab elektron joylashgan cheksiz chuqur potentsial quduq bor deylik. Agar quduq kengligi d bo'lsa, u holda $0 < x < d$ oraliqda elektron nol potentsial energiyaga ega. Cheklangan potentsial to'siq quduqdan tashqarida elektronni topishga imkon bermaydi. Vertikal devorlar bilan chuqur bir o'lchovli potentsial quduqda elektronning harakati to'g'risidagi kvant muammosidan kelib chiqib, elektronning holati garmonik to'lqin funksiyasi bilan tavsiflanadi:

$$\psi_n(x) = \sqrt{\frac{2}{d}} \sin \frac{n\pi}{d} x, \quad (5.2)$$

(1)

(Garmonik to'lqin funksiyasi).

Bu yerda $n = 1, 2, 3, \dots$

Aslida, quduq devorlari o'rtasida to'lqin uzunligi $\lambda_n = 2d/n$ ($n = 1, 2, 3, \dots$) munosabati bilan aniqlangan elektron to'lqinlar joylashgan. To'lqin vektorining ruxsat etilgan qiymatlari diskret bo'lib, $k_n = 2\pi/\lambda_n = n\pi/d$ ga teng. Natijada, quduq ichidagi elektronning ruxsat etilgan energiya holatining energiyalari ham diskret holga keladi. Energiya spektri quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$E_n = \frac{\hbar^2 k_n^2}{2m^*} = \frac{\hbar^2 \pi^2 n^2}{2m^* d^2}. \quad (5.3)$$

n - kvant holatini bildiruvchi butun kvant sonidir. Shunday qilib, cheklangan fazoga joylashtirilgan elektron faqat diskret energiya sathini egallashi mumkin.

Eng past holat ($n = 1$) energiyasi

$$E_1 = \frac{h^2 \pi^2}{2m^* d^2} \quad (5.4)$$

har doim noldan katta. Nolga teng bo'lmagan minimal energiya kvant-mexanik tizimni potentsial quduqning pastki qismida joylashgan zarraning energiyasi bilan nolga teng bo'lgan klassik tizimdan ajratib turadi. Bundan tashqari, elektron uchun ruxsat etilgan energiya qiymatlari n^2 ga teng va mutanosib bo'ladi (qarang (2)).

Keling, kvant o'rasiga qaytaylik. Yuqorida biz bunday tuzilmalardagi zaryad tashuvchilar xy tekislikda harakatlanishi mumkinligini va ularning z o'qi bo'ylab harakatlanishi qatlam qalinligi dz bilan cheklanganligini ta'kidladik. Ularning energiyasi z yo'nalishi bo'yicha kvant cheklash effekti bilan aniqlanadigan kvantlangan qiymatlarning yig'indisidir (2):

$$E_n = \frac{h^2 \pi^2 n^2}{2m^* d^2} + \frac{h^2 k_x^2}{2m^*} + \frac{h^2 k_y^2}{2m^*}. \quad (5.5)$$

Shunday qilib, elektronning kvant qudug'idagi energiya spektri uzluksizdir.

k -fazoda kvant qudug'ining (diagramma) energiya sxemasi parabolik zonalar turkumi bo'lib, ular bir-birining ustiga pastki chiziqlar hosil qiladi (5.1-rasm).

Kvant qudug'idagi holatlar zichligining energiyaga bog'liqligi bosqichma-bosqich shaklga ega va quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$n_{2D}(E) = \Theta(E - E_i), \quad i = 1, 2, \dots, \quad (5.6)$$

bu erda $\Theta(E - E_i)$ qadam funktsiyasi.


Kvant quduqlaridagi (qatlamli) elektronlar odatda ikki o'lchovli elektron gaz (2DEG) deb ataladi.

d qalinlikka ega kvant qatlami

Kvant plyonkalar ikki o'lchovli (2D) tuzilmalar bo'lib, unda kvant ushlab turish faqat bitta yo'nalishda - qatlam qalinligi bo'ylab harakatlanadi. Kvant qatlamidagi zaryad tashuvchilarning to'lqin funktsiyalari qatlamdagierkin zarraning to'lqin funktsiyalariga o'xshash va qatlam tekisligiga perpendikulyar o'q bo'ylab turg'un to'lqinlar shaklida bo'ladi.

Kvant qatlamida energiya sathlari

Zaryad tashuvchilarning energiyasi z o'qi yo'nalishi bo'yicha kvant tutish ta'siri bilan aniqlangan diskret qiymatlardan va Ox va Oy yo'nalishidagi energiya komponentlarining doimiy qiymatlaridan iborat.



5.3-rasm. Yassi namunaning magnit maydonida joylashishi

2d-strukturalar kuchli magnit maydonida

Biz bilamizki magnit maydonga kiritilgan elektronga Lorents kuchi ta'sir qiladi. 2D tuzilishni ikki o'lchovli electron gaz deb qarash mumkin. Magnit maydonida Lorents kuchi ta'sir qilganda electron aylanma trayektoriya boylab harakatlanadi. Bunday harakat siklotron harakati deb ham ataladi. Zarraning harakat trayektoriyasi siklotron orbita deb ataladi. Klassik harakat tenglamalaridan quyidagilarni aniqlash mumkin.

$$mv^2 / r = \frac{e}{c} vB \Rightarrow r = \frac{cmv}{qB}. \quad (5.7)$$

Bu yerda, m -elektronning massasi, v -elektronning tezligi, r -orbita radiusi, e - elementar zaryad, c - yorug'lik tezligi, B - tashqi magnit maydoni induksiyasi.

Bu ifodadan orbita boylab harakatlanish chastotasini aniqlash mumkin:

$$\omega_c = \frac{v}{r} = \frac{qB}{mc}. \quad (5.8)$$

Siklotron orbitasi boylab harakat finit (trayektoriya yopiq) harakat. Maydon juda katta bo'lganda kvant nazariyasi ishlay boshlaydi. Natijada siklotron orbitalari kvantlanadi:

$$\oint \mathbf{p}^r dl = nh \quad (5.9)$$

Magnit maydonda electron impulsi bizga ma'lum:

$$\mathbf{p}^r \Leftrightarrow \mathbf{p} - \frac{e}{c} \mathbf{A} \quad (5.10)$$

Bu yerda \mathbf{A} -magnit potensial (xuddi elektr potensialga o'xshagan). (5.10) ni inobatga olib (5.9)-integralni hisoblasak quyidagi ko'rinishda ifoda hosil bo'ladi.

$$nh = 2\pi r p - \frac{e}{c} B \pi r^2 = 2\pi m \omega_c r^2 - \pi m \omega_c r^2 = \pi m \omega_c r^2 \quad (5.11)$$

(5.11)-ifodani (5.8)-ifodaga olib borib qoyamiz va kvantlangan orbita radiuslarini aniqlaymiz:


$$r_n = \sqrt{\frac{nh}{\pi m \omega_c}} = \sqrt{2n \frac{ch}{eB}} \quad (5.12)$$

Har bitta orbitaga to'g'ri kelgan energiya esa

$$E_n = \frac{p_n^2}{2m} = \frac{m \omega_c r_n^2}{2} = n h \omega_c \quad (5.13)$$

Bu yerda faqat $n=0$ holatni tushuntirib bo'lmaydi, ya'ni bunda zarra energiyasi nolga teng. Xuddi shu masala Landau tomonidan Shredenger tenglamasini yechib to'liq hal qilingan.

Landau sathlari deb zaryadlangan zarralarning magnit maydondagi harakti natijasida hosil bo'lgan energiya sathlariga aytiladi (5.4-rasm). Ya'ni magnit maydonda harakatlanayotgan zaryadli zarra ixtiyoriy radius boylab harakatlanmay aniq diskret radiuslar boylab harakatlanadi



5.4-rasm. Electronlarning magnit maydonidagi orbitalari

1930-yil L.D. Landau tomonidan zaryadlangan zarraning magnit maydonidagi harakati uchun Shredinger tenglamasini yechib diskret sathlarni aniqlagan. Bu diskret sathlar Landau sathlari deb ataladi. Bu masalani garmonik potentsialda elektronning to'liq funksiyasi uchun ishlagan. Landau sathlari magnit maydonidagi barcha kinetic hodisalar uchun muhim rol oynaydi. Landau sathlarini elektronlar uchun ko'rib chiqamiz:

Ikki o'lchovli (2D) Xoll strukturasida harakat faqat bitta o'q boylab kvantlangan

(masalan, z o'qi bo'yicha). Bu holda electron spektri ekvidistant sathlardan (oralaridagi masofa $\hbar\omega_c$ ga teng, bu yerda ω_c magnit maydonning z o'qi yo'nalishidagi komponentalaridan aniqlanadi) iborat bo'ladi. Elektron energiyasi esa quyidagiga teng:

$$E(n, m) = E_m + \hbar\omega_c \left(n + \frac{1}{2} \right) \quad (5.14)$$

Bu yerda E_m - elektronning z o'qi boylab harakatiga bog'liq bo'lgan energiya. Bizning holda z o'qi boylab harakat energiyasi yo'q ($E_m = 0$) bo'lgani uchun (5.14)-ifoda quyidagi ko'rinishga keladi:


$$E(n) = \hbar\omega_c \left(n + \frac{1}{2} \right) \quad (5.15)$$

5.2. Energetik holatlar zichligi

Namuna o'lchamlarini kamaytirganimizda berilgan to'lqin vektoriga mos kvant sonlari n kamayadi, qo'shni energiya sathlari orasidagi masofa $E_n - E_{n-1}$ osha boradi.

Ammo $k^2 = k_x^2 + k_y^2 + k_z^2$, va k_z ning cheklanishi k_x va k_y ning mumkin bo'lgan qiymatlarini o'zgartiradi.

Nanoobektlarda elektronlar energetik spektrining o'zgarishi



Hajmdor namuna Kvant o'rasi va nanoip Kvant nuqtasi

5.5-rasm. Nanoob'ektlarda energetik sathlar va energetik holatlar zichligi

Qalinligi a bo'lgan metal plastinkada elektronlarning holati haqidagi masalaning yechimi biroz murakkabroq, lekin pirovardda chegara shartlari $\psi(0) = 0$ va $\psi(a) = 0$ bilan quyidagi algebraik tenglamaga kelamiz:

$$\arcsin \left\{ kh / (2m_z^* U_0)^{1/2} \right\} = (n\pi - ka) / 2.$$

Bu tenglamada ham elektronlarning to'liq vektori va energiyasi kvantlanganligini ko'ramiz:

$$k_n = p_n / \hbar = n\pi / a,$$

$$E_n = \hbar^2 k_n^2 / 2m^* = \hbar^2 n^2 \pi^2 / (2m^* a) \quad (n = 1, 2, 3 \dots).$$

$E > U_0$ bo'lsa elektronlarning potensial o'radagi harakati (5-slayd) infinit (cheklanmagan, elektron har qancha uzoqqa ketishi mumkin) bo'ladi. Agarda $E < U_0$ bo'lsa, elektronning to'liq funksiyasi $x < 0$ da ham, $x > a$ da ham eksponensial kamayadi, ya'ni elektron $0 \leq x \leq a$ oralig'ida bog'langan.


p_x va p_y koordinatalarida izoenergetik (o'zgarmas energiya) sathlari E aylanma paraboloid ko'rinishida bo'ladi:

$$E = \frac{p_x^2}{2m_x^*} + \frac{p_y^2}{2m_y^*} + \frac{n^2 \hbar^2 \pi^2}{2m_z^* a^2}.$$

Fermi sathi n_{\max} ning mumkin bo'lgan maksimal qiymatlarini cheklaydi:

$$n_{\max} \leq \left(2m_z^* a^2 E_F / (\pi^2 \hbar^2) \right)^{1/2} \leq n_{\max} + 1.$$

Ikki o'lchamli elektron gazning bir zonachadagi zichligi (birlik hajmga va birlik energiya oralig'iga to'g'ri keladigan holatlar soni) energiyaga bog'liq emas.



5.6-rasm. Izoenergetik sathlar va holatlar zichligi

$$N_j(E) = S m_z^* / (\pi \hbar)$$

Bunda S – namunaning yuzasi. Agar bir necha zonachalar to'lgan bo'lsa, hammasi

uchu yig'indini hisoblash kerak.

Endi metall plastinkaning fazoviy kvantlanish tufayli energetik zonalar tuzilish o'zgaradigan minimal qalinligini chamalaymiz. Yaxshi o'rganilgan vismut elementi chalametall bo'lib, valent va o'tkazuvchanlik zonalari $E_n = 30$ meV ga ustma ust. O'lchamli kvantlanganda elektronlarning energiyasi

$$E_e = \hbar^2 \pi^2 / (2m_{ze}^* d^2)$$

bo'lgan birinchi zonachasi (o'tkazuvchanlik zonasi) yuqoriga siljiydi, kovaklarning energiyasi

$$E_h = \hbar^2 \pi^2 / (2m_{zh}^* d^2)$$

bo'lgan birinchi zonachasi (valent zonasi) esa pastga siljiydi. Oqibat vismut plastinkasining qalinligi kritik qiymat

$$d = \hbar \pi [(E_n/2)(1/m_{ze}^* + 1/m_{zh}^*)]^{1/2}$$



ga yetganda bu zonachalar orasida energetik tirqish (taqiqlangan zona) hosil bo'ladi.

Vismut uchun ($m_{zh}^* = 0,1m_0$, $m_{ze}^* = 0,01 m_0$, $E_n = 30$ meV) yarimo'tkazgichga aylanishning kritik o'lchami $d = 35$ nm bo'lib chiqdi.


5.3. Ballistik transport

Uglerod atomlarini x_0 masofagacha yaqinlashtirilganda bu atomlarning 2s va 2p elektron holatlaridan hosil bo'lgan zonalar ustma ust tushadi. Bu hodisa s-p gibridlashish deyiladi. Atomlar orasidagi masofa a_0 valent zonasidagi elektronlar energiyasining minimumiga mos keladigan a_0 masofada olmosning turg'un holatiga erishiladi. Shunda taqiqlangan zonaning kengligi 5,3 eVga teng bo'ladi.


Ana shunday yo'l bilan kremniyda (3s va 3p holatlar) va germaniyda (4s va 4p holatlardan) energetik zonalar hosil bo'ladi. Ularning taqiqlangan zonalar kengligi $T = 0$ K da mos ravishda 1,165 va 0,746 eVni tashkil qiladi.



5.7-rasm. Energetik zonalar hosil no'lishi va metal, yarimo'tkazgich, dielektriklarda energetik zonalar



5.8-rasm. Xususiy (*a*), elektron (*b*) va kovak (*v*) yarimo'tkazgichlarning energetik zonalari




5.9-rasm. Kremniyning to'g'ri (*a*) va teskari (*b*) panjaralariningelementar yacheykalari va birinchi Brilliyuen zonasi (*v*)Panjara doimiysi $5,43 \text{ \AA}$, teskari panjaraniki $1,16 \text{ \AA}^{-1}$

G nuqta – Brilliyuen zonasining markazi, koordinatlari (0,0,0);

L nuqta - $\langle 111 \rangle$ o'qlarning (Δ chiziq) zona yonlari bilan kesishgan nuqtasi, koordinatlari (0,0,0);

X nuqta - $\langle 100 \rangle$ o'qlarning (Δ chiziq) zona yonlari bilan kesishgan nuqtasi, koordinatlari (0,0,1);

K nuqta - $\langle 110 \rangle$ o'qlarning (Σ chiziq) zona qirralari bilan kesishgan nuqtalari, koordinatlari (0,0,0).



Germaniy

Kremniy




Galliyarsenadi

5.10-rasm. Germaniy, kremniy va galliy arsenadida energetik zonalar

5.4. Metall tranzistorlar

Zamonaviy raqamli mikrosxemalarning asosi MOP-tranzistor va SMOS yacheyka (5.9-rasm)


5.9-rasm. KMOYa (KMOP, CMOS)-chipning tuzilishi. Har bosqichda necha qatlam o'stirilishi rasmda ko'rsatilgan.



5.11-rasm. KMOYa-yacheyka va mikrosxemaning kesimi

Kremniy plastinkasidan tayyor mikrosxemagacha texnologik jarayonlar 50 marta takrorlanadi (5.11-rasm).

FEOL (front-end-of-line) jarayonlarini bajarish natijasi – plastinkada alohida tranzistorlarning yaratilishi, ular hozircha o'zaro bog'lanmagan. Plastinkadagi turli komponentlar orasida ichki bog'lanishlarni yaratish navbatdagi bosqich — BEOL (back end of line) da bajariladi.



5.12-rasm. Xalkopirit CuFeS_2 ga o'xshash tuzilishidagi yarimo'tkazgichlarning energetik zonalari

GaAs, GaN, GaP, InP, InSb, GaAlAs, AlGaIn, ZnO, In_2O_3 , SnO_2 , ITO va hokazo.

$A_{III}B_V$ yarimo'tkazgichlarining asosiy afzalligi –

zaryadtashuvchilareffektiv massasining kamligi va shuningamotashuvchilarning harakatlanuvchanligi yuqoriligi. Masalan, 300 K da kremniyda elektronlarning

harakatlanuvchanligi taxminan $0,15 \text{ m}^2/(\text{V}\cdot\text{s})$, GaAsda – $0,85 \text{ m}^2/(\text{V}\cdot\text{s})$, InAsda – $3,3 \text{ m}^2/(\text{V}\cdot\text{s})$, InSbda – $7,8 \text{ m}^2/(\text{V}\cdot\text{s})$.

Shu sabab bunday yarimo'tkazgichlardan yasalgan asboblarning ishlashtezligi yuqori.


Kristall tuzilishining o'xshashligi - chegaralari nuqsonlarsiz geterotizimlar yaratish mumkin.

ZnO, In_2O_3 , SnO_2 , ITO shaffofo'tkazgichlar bo'lib, masalan, quyoshelementlarida ishlatiladi.


⊙ O'ta yuqori va teragers chastotadagi tranzistorlar va diodlar (400 GGs gacha yaratigan)

- ⊙ Favqulodda sharoitlarda ($T = 300-500^{\circ}\text{S}$), katta toklarda va yuqori kuchlanishlarda ishlaydigan tranzistorlar va diodlar (elektr transportda, energetikada elektr energiyasini o'zgartirish uchun)
- ⊙ FIK i yuqori energiya o'zgartirgichlar, masalan, quyosh batareyalari, termoelektrik o'zgartirgichlar
- ⊙ Yuqori unumli kompyuterlar uchun tranzistorlar, diodlar va mikrosxemalar
- ⊙ Turli to'liqin uzunliklarida ishlovchi quvvati oshirilgan lazerlar va svetodiodlar (uzoq IQ dan ultrabinafshagacha).

O'tkazuvchanligi ikki xil yarimo'tkazgichlar tutashuvining ($p-n$ -, $n-n^{+}$ -, $p-p^{+}$ -gomoo'tishlar) energetik diagrammasi




5.13-rasm. $p-n$ -o'tishning energetik diagrammasi muvozanat holatida (tashqi ta'sir yo'q - a), to'g'ri yo'nalishda (b) va teskari yo'nalishda (c)




5.14-rasm. $p-n$ -o'tishda kvant tunnellanishi. (a) - muvozanat holatida (tashqi ta'sir yo'q), to'g'ri yo'nalishda (b) va teskari yo'nalishda (c)

Kremniyda invers qatlamlar




5.15-rasm. Kremniyda invers qatlamlarning energetik diagrammasi


Geteroo'tishli tranzistorlar



5.16-rasm. Metall-yarimo'tkazgich o'tishi (Shottki to'sig'i) ning energetik diagrammasi



5.17-rasm. Shottki zatvorli maydon tranzistorining tuzilishi va energetik diagrammasi




5.18-rasm. Shottki zatvorli maydon geterotranzistorining tuzilishi va energetik diagrammasi

O'ngda raqamlar bilan belgilangan: 1 - legirlanmagan GaAlAs qatlami (2-3 nm), 2 – n-GaAlAs qatlami, 3 – donorlarning energetik sathlari, 4 – ikki o'lchamli elektron gaz hududi (potensial o'ra, legirlanmagan GaAlAs qatlami).

Bu ikki o'lchamli elektron gaz kvant xossalarini namoyon qiladi, elektronlarning to'liq funksiyalari esa potensial o'ra devorlaridan chiqadi. Chegara chastotasi yuqori – 80-120 GGs (0,1-0,2 mkm) va 600 GGs (20 nm).


Bipolyar geterotranzistor



5.19-rasm. 1 – bazi qatlami (p+-GaAs), 2 – oraliq qatlam, 3 – emitter qatlami (n-GaAlAs), 4 oraliq qatlam, 5 – kontaktosti qatlami, 6 – izoliriyasiya qatlami. B, Em, K – mos ravishda bazaning, emitterning va kollektorning metall kontaktlari.


Bunday tranzistorlarning chegara chastotasi 250 GGs va hatto 400 GGs.

Rezonans tunnel geterotranzistor



5.20-rasm. Qo'shaloq tunnelto'siqli (QTT) kvanto'lchamli qatlamdagi kuchlanishning o'tayotgan tokka bog'liqligi, QTT ni tok manbasi bilan ketma-ket ulash sxemasi va bunday sxemaning chiqish xarakteristikasi. Pikosekundning ulushlari – tezkor logika Epitaksial o'stirish texnologiyasi QTT ning o'ta yupqa qatlamini bipolyar geterotranzistorning istalgan qismiga o'rnatish imkonini beradi.

Qaynoq tashuvchili tranzistorlar



5.20-rasm. Qaynoq tashuvchili tranzistorning energetik diagrammasi

Qaynoq tashuvchilarning energiyasi issiqlik energiyasi kT dan ancha yuqori.


E_v – valent zonasining shipti, E_p – o'tkazuvchanlik zonasining tubi,

E_{fk} va E_{fk} – mos ravishda kollektordagi va emitterdagi Fermi sathlari.

Afzalligi – yuzlab GGs chastotalarda tokni kuchaytirish ko'effitsiyenti 10 dan oshadi va

shu bilan birga xususiy shovqin juda kam bo'ladi.


AlGaN danyasalganmaydontranzistori



5.21-rasm. AlGaN danyasalganmaydontranzistorining tuzilishi


Katta kuchlanish vakatta toklarda, yuqori temperaturada ishlashi mumkin.

Getero'o'tishda ikki o'lchamli elektron gazning yuqori konsentratsiyasi hosil qilinishi mumkin (5.22-rasm).



5.22-rasm.

Geterostrukturalarning svetodioid sifatida ishlatilishi




Qizil nur chiqaradi

Oq nur chiqaradi.


5.23-rasm. Geterostrukturalardan yasalgan svetodiodning tuzikishi

Geterostrukturalarning yarimo'tkazgich lazerlar sifatida ishlatilishi.




5.24-rasm. Geterostrukturalardan yasalgan lazerlarning tuazilishi, energetic diagrammasi va tashqi ko'rinishi

Geterostrukturalarning quyosh elementlari sifatida ishlatilishi.



5.25-rasm. Geterostrukturnalardan yasalgan quyosh elementining energetic diagrammasi





5.25-rasm. Geterostrukturalardan yasalgan quyosh elementining tuzilishi

6-ma`ruza. Xollning kvant effektlari. Butun sonly Xoll effekti.

Kasr sonly Xoll effekti.

REJA:

6.1. Xoll effekti tushunchasi.

6.2. Xollning kvant effektlari.

6.3. ButunsonliXolleffekti.

6.4. KasrsonliXolleffekti.

Tayanch iboralar: Elektr o'tkazuvchanlik, issiqlik o'tkazuvchanlik, Elektronlar va kvant oqimi. Kompozit zarrachalar. Fermion va bozonlar. Modullangan legirlash.

6.1. Xoll effekti tushunchasi.

1879-yilda amerikalik fizik Edvin Xoll qiziq bir fizik tajriba o'tkazdi. U yupqa to'rtburchak oltin plastinani kuchli magnit maydoniga, ushbu magnit maydoni tekisligiga perpendikulyar tarzda joylashtirdi. Keling, x va x' o'sha tilla to'rtburchakning ikkita qarama-qarshi tomonini ifodalasin; y va y' esa qolgan yana ikkita qarama-qarshi tomonini ifodalasin. Olim tillato'rtburchakning x va x' tomonlariga batareykaning qutblarini uladi va tok x yo'nalishida oqishni boshladi. Shunda Xoll hayrat bilan shuni kuzatdiki, y va y' tomonlar orasida ham muayyan elektr kuchlanishi yuzaga keldi. Ushbu kuchlanish esa, tokning zichligi va magnit maydoni qiymati B_z ning ko'paytmasiga proporsional ekan. Ko'p yillar mobaynida Xoll effektidan amaliy foydalanish sohasini topish qiyin bo'ldi. Chunki, bunda hosil bo'layotgan kuchlanish qiymati juda past edi. Lekin ushbu effekt XX-asrning ikkinchi yarmida butun dunyo bo'ylab son-sanoqsiz ilmiy tadqiqotlar va tajriba-sinov ishlanmalarida anchayin foydali manba sifatida qo'llanildi. Aytish joizki, Xoll tomonidan bunday past kuchlanishni kashf qilishi, elektron kashf qilinishidan naq 18-yil avvalroq sodir bo'lgan edi.

Xoll konstantasi R_H - induksiyalangan elektr maydoni E_y ning tok zichligi j_x va B_z ko'paytmasi bilan o'zaro nisbatiga teng:

$$R_H = \frac{E_y}{(j_x \cdot B_z)}$$

y o'qi bo'ylab yuzaga keladigan kuchlanish va tok kuchining o'zaro nisbati *Xoll qarshiligi* deyiladi. Xoll konstantasi ham, xoll qarshiligi ham qaralayotgan moddaning xossasi bo'ladi. Xoll effekti magnit maydoni va tok tashuvchilarining zichligini o'lchashda juda ham qo'l keluvchi muhim fizik effekt bo'lib chiqdi. Biz ataylab, «tok tashuvchilari» degan jumalani qo'llamoqdamiz. Chunki, biz bilgan elektr tokini nafaqat

elektronlar, balki boshqa turdagi zaryadlangan zarralar ham tashishi mumkin. Masalan, musbat zaryadlangan tok tashuvchilaridan *teshiklar* ni eslash o‘rinli.

Hozirgi kunda Xoll effektidan foydalanib ishlovchi qurilmalar talaygina. Xususan, magnit maydonini yoki suyuqlik oqimlarini qayd qiluvchi datchiklar, bosimdatchiklari, hamda, avtomobilni o‘t oldirish taqsimlagichlari shular jumlasidandir. 1980-yilda nemis fizigi Klaus fon Klitsing kvant miqyosidagi Xoll effektini ham kashf qildi. Aniqlanishicha, kuchli magnit maydoni va past haroratlarda, Xoll qarshiligining magnit maydoni bilan bog‘liqlik grafigida sakrashlar kuzatilar ekan.


6.2. Xollning kvant effektlari.

Mikroskopik darajada tizimning xossalari kvantlangan bo‘lishi endi ajablanarli emas. Biroq, 1980 yilda fon Klitzing va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan tajribajuda hayratlanarli natija ko‘rsatdi: Kvantlangan makroskopik xususiyatlarni ko‘rsatadigan tizimlar mavjud. Ushbu tajriba kuchli magnit maydonlar va past haroratlarda ostida ikki o‘lchovli erkin elektronlar tizimidan iborat edi. Taxminan doimiy o‘tkazuvchanlik qiymatining nisbatan katta bosqichlaridan iborat bo‘lgan magnit maydonning intensivligiga nisbatan o‘tkazuvchanlikning juda g‘ayrioddiy harakati kuzatildi. Ushbu hodisa hozirda kvant Xoll effekti deb nomlanadi va u o‘tgan asrdagi kondensatsiyalangan moddalar fizikasining eng muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi.

Ikki o‘lchamli elektron gaz va Xollning kvant effekti Aaronov-Bom effekti: magnit maydonida 1 va 2 nuqtalarni birlashtiruvchi har xil trayektoriyalar boylab harakatlanayotgan ikki elektronning fazalari farqi

$$\Delta\phi = e\Phi / h,$$


bunda Φ – shu trayektorilardan tashkil topgan konturdagi magnit maydoni oqimi.




6.1-rasm. Aaronov-Bom effekti tufayli elektronlarning de Broyl to'liqlari interferensiyasi tasviri o'zgaradi – magnit maydonida markazda maksimum o'rniga minimum paydo bo'ladi.

Bu faza siljishini hisobga olsak Landau sathlari uchun boshqacharoq ifodani topamiz:

$$E_n = h\nu_L n.$$



6.2-rasm. Ikki o'lchamli elektron gaz.



$$\rho_{xy} = E_y / j = B / (ne).$$

Xoll qarshiligi – Xoll

EYuK sining bo'ylama

tokka nisbati:


$\rho_{xy} = \frac{h}{e^2} \nu$ kvantlangan.
 ν – butun son
 (Landau sathlarining to'lish koeffitsienti)

6.3-rasm. Xollqarshiligining bo'ylama tokga nisbati.

Ikki o'lchamli electron gazning chekkasi yaqinida kambag'allashgan qatlam hosil bo'ladi va Landau sathlarining sanoq boshi koordinatga bog'liq bo'ladi – ular «yuqoriga» egiladi.

Fermi-Dirak statistikasi.

To'ldirish koeffisiyenti ν butun songa yaqinlashganda chekkadan uzoqroqda lokallashgan holatlar, chekka yaqinida esa tok holatlari paydo bo'ladi. Konturni aylanish yo'nalishi magnet maydonining yo'nalishi bilan belgilanadi.



6.4-rasm. Ikki o'lchamli elektron gaz va Xollning kvant effekti.


6.3. Butun sonli Xoll effektining kelib chiqishi.

Ikki o'lchovli elektron gazda juda past haroratda ($T < 4 \text{ K}$) kuchli perpendikulyar magnit maydon ($B \sim 0 \text{ (T)}$) ta'sirida elektr o'tkazuvchanligi klassik fizikaning bashoratlaridan tubdan farq qiladigan qiymatlarni oladi. Hall o'tkazuvchanligi deb ham ataladigan ko'ndalang o'tkazuvchanlik miqdori butun sonli qiymatlarni oladi:

$$\sigma_{xy} = \nu \frac{e^2}{2\pi\hbar}$$


Bu erda ν qiymati butun son bo'lishi juda yuqori aniqlikda o'lchangan, shuning uchun butun son kvant Hall effekti nomi berilgan. Butun sonli kvant Xoll effektini kashf etgani uchun Klaus fon Klitsing 1985 yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

Biz butun son kvant Xoll effektining bir-biridan farq qiladigan ikkita tushuntirishini ko'rib chiqamiz. Qirralari bo'lgan chekli tizimda chekka yaqinidagi qo'zg'alishlar tomonidan belgilanadigan Hall oqimini izohlash mumkin. Bu chekka holatlarni tajribada ham kuzatish mumkin. Ular faqat bitta qat'iy yo'nalishda oqim o'tkazishi mumkinligi ma'nosida chiral rejimlardir. Shu bilan birga, bu chekka rejimlar tizimdagi uzluksiz o'zgarishlarda chekka rejimlar soni o'zgarmaydigan tarzda himoyalangan.



$$\rho_{xy} = \frac{2\pi\hbar}{e^2} \frac{1}{\nu}$$

6.6-rasm. Butun sonli kvant xoll effekti qarshilgining kuchlanishga bog'liqligi.



6.7-rasm: Butun sonli kvant Xoll tizimining qarshiligi, magnit maydonning funktsiyalari sifatida. Qizil chiziq p_{xx} bo'ylama qarshiligini ko'rsatadi, agar p_{xy} plato darajasida o'tirsa, u nolga teng bo'ladi va p_{xx} bir platodan ikkinchisiga o'tganda keskin ko'tariladi. Yashil chiziq Xoll qarshiligining p_{xy} ni bildiradi, u plato shaklini oladi, ya'ni magnit maydonlar oralig'ida doimiydir.

6.4. Kasrsonli Xoll effekti.

1982-yilda Daniel Sui (Daniel Tsui) va Xorst Shtyormer (Horst Störmer) ochishgan, 1983-yilda Robert Laflin tushuntirib bergan.


